

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Umumiy tarix” kafedrası

**Qo‘lyozma huquqida
UDK 9 (575,1)**

RAVSHANOV RAVSHAN RAHMATILLAYEVICH

**MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA
SANOAT SOHASIDA ISLOHOTLAR,
O‘ZGARISHLAR, NATIJALARI
VA ISTIQBOLI
(Navoiy viloyati misolida).**

REFERAT

Navoiy -2013

**MAVZU: MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA SANOAT SOHASIDA
ISLOHOTLAR, O‘ZGARISHLAR, NATIJALARI VA ISTIQBOLI
(Navoiy viloyati misolida).**

Reja:

Kirish.

**I-BOB. MUSTAQILLIK – O‘ZBEKISTON SANOATI
TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI.**

1.1. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston sanoatida olib borilayotgan islohotlar – taraqqiyot garovi.

1.2. Navoiy viloyati – mamlakatimizda yuqori sanoat potensialiga ega bo‘lgan viloyat.

**II-BOB. NAVOIY VILOYATI SANOATIGA CHET EL
INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI.**

2.1. Navoiy viloyati sanoatiga chet el investitsiyalarining kiritilishi.

2.2. Navoiy viloyati sanoat korxonalari qurilishida chet ellik hamkorlar bilan amalga oshirilgan ishlar.

**III-BOB. KEYINGI YILLARDA NAVOIY VILOYATI SANOATINI
MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA NATIJALARI.**

3.1. Navoiy viloyati sanoat mahsulotlari va halq iste‘moli mollari ishlab chiqarishining yilma-yil ko‘payib borishi.

3.2. Navoiy viloyati sanoat mahsulot sifatining oshib mamlakatdan tashqariga chiqarilishi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston 1991 yil o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng umrini o‘tab bo‘lgan mustabid, ma‘muriy-bo‘yruqbozlik, rejali taqsimot tizimidan voz kechib, bugungi kunda “o‘zbek modeli” deya e‘tirof etilayotgan o‘zining taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu modeldagi *iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo‘lishi, qonunning ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tadrijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish*¹ kabi tamoyillarning ijtimoiy hayotdagi tutgan o‘rni salmoqlidir, ularning naqadar to‘g‘ri ishlab chiqilganligi bugungi hayotda o‘z samarasini bermoqda. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.Karimovning ushbu so‘zlarini ta‘kidlash o‘rinlidir: “Mustaqillik yillarida bosib o‘tgan yo‘limiz va to‘plagan tajribamizni xolisona baholash, qo‘lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo‘yicha biz tanlagan modelning naqadar to‘g‘ri ekanini va shu yo‘ldan bundan buyon ham og‘ishmay qat’iyat bilan borishimiz zarurligini hayotning o‘zi yaqqol ko‘rsatmoqda”². Shuningdek, yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, O‘zbekiston istiqbolga erishgandan keyin ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga o‘tish, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, O‘zbekistonda bosh islohotchi bo‘lgan davlat rahbarligida o‘tkazilgan izchil islohotlar natijasida davlatlashtirilgan va markazdan turib rejalashtiriladigan iqtisodiyot o‘rniga xilma-xil mulkchilikka va xo‘jalik yuritishning bozor usullariga tayangan, uning qonunlariga binoan rivojlantiruvchi, iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan liberal va demokratik iqtisodiyot qaror topdi³. Bunday iqtisodiyotni yangilash uning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini o‘zgartirishdan iborat bo‘ldi. Albatta, bu sohani isloh qilish natijasida davlat mulki qat’iy chegaralandi, nodavlat mulk shakllari va eng avvalo, xususiy mulk yuzaga keldi, uning rivojlanishi

¹ Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma‘naviyat”, 2008 yil, 103-bet.

² Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Konunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisida qilgan ma‘ruzasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2010 yil, 13 noyabr.

³ O‘zbekiston Respublikasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, T.: 2006 yil, 242-bet.

qo'llab-quvvatlandi. Umuman olganda, bu iqtisodiy islohotlar o'z o'rnida jamiyatimizning siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hamda davlat qurilishi sohalaridagi tub islohotlar bilan chambarchas, uzviy bog'liqlikda amalga oshirilib kelinmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston iqtisodiy hayotida sanoatning ham o'ziga xos muhim o'rni bor. Chunki u mamlakat iqtisodiy industrial sektorining yetakchi bo'g'ini, moddiy ishlab chiqarishining asosiy sohalaridan biri sanaladi. Mustaqillik yillarida sanoat ham iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish yo'lida rivojlandi. Bu jabhada ham olib borilgan islohotlar natijasida sanoat tarmoqlarida xilma-xil mulkchilik va xo'jalik yuritishning bozor usullari qaror topdi. Natijada, yurtimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishida bu islohotlarning samarasi benihoya katta bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, istiqlol sharoitida O'zbekistonda sanoat sohasida olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar va ularning ishlab chiqarish rivojiga ta'sirini o'rganish, tahlil qilish, kerak bo'lsa uni tadqiq etish bugungi kunda O'zbekiston tarixi fani va uning tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimiz sanoatining yetakchi tarmoqlari joylashgan Navoiy viloyatidagi sanoat korxonalarida mustaqillik yillarida bo'layotgan islohotlar va o'zgarishlar jarayonini bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona ilmiy tadqiq etish va tahlil qilish o'ziga xos tarixiy ahamiyatga molik masaladir. O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan Navoiy viloyati alohida sanoat va industriya markazlari sifatida respublika hayotida salmoqli o'rin egallaydi. Voha sanoatining mustaqillik davri o'zgarishlarini tahlil etish, yutuq va muammolarni ko'rsatish, kerakli taklif va tavsiyalar berish tarix fani uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning o'z rivojlanish yo'li, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonini, Navoiy viloyati misolida tadqiq etish tarix fanining istiqbolli va dolzarb muammolaridan biri ekanidan dalolat beradi.

Binobarin mustaqillik davri butun respublika miqyosida sanoat sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar jarayoni tahlili yangi jamiyat qurish amaliyoti bosib o'tilgan dastlabki bosqichda amalga oshirilgan ulkan ishlarning tarixiy ahamiyatini anglab yetish, tushunish, tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish imkonini beradi. Mavjud barcha korxonalar davlat tasarrufidan chiqarilib mulkchilikning o'zgacha shakliga

kirib bormoqda. Aksariyat yirik va oʻrta korxonalar negizida aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Bu kabi islohotlar tufayli bu yerda sanoat ishlab chiqarishining taraqqiy etib borayotganligini oʻrganish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir.

Xullas, Navoiy viloyati mamlakatimizda muhim ahamiyatga ega boʻlgan iqtisodiy rayonlardan biri ekan, bu voha sanoat korxonalarining mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar tufayli qoʻlga kiritgan natijalari, oʻsish surʼatlarini oʻrganish, tahlil qilish va tadqiq etish Oʻzbekiston tarixinining istiqboldagi rivoji uchun munosib tuhfa deb hisoblayman.

Tadqiqotning xronologik chegarasi 1991 yildan 2011 yilgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga qamrab oladi. Bu 20 yil mamlakat va xalq hayotida tom maʼnoda tub burilish yasagan muhim bosqichdir. Mana shu qisqa davrda bosib oʻtilgan taraqqiyot yoʻlini tahlil etib, baho berish ilmiy ishning asosiy maqsadini va davrini belgilab beradi.

Mavzuning oʻrganilish darajasi. Bevosita tanlangan mavzuga doir ishlar juda kam. Biroq, mustaqillik davrida qoʻyilgan dastlabki amaliy qadamlar natijasida sobiq ittifoq davrida olib borilgan siyosatning ayrim sohalari boʻyicha adabiyotlar, maqolalar va ayrim ilmiy ishlar yuzaga kelgan.

Istiqlolning dastlabki yillarida nashr etilgan ishlar qatoriga Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashning umumiy jarayonlarini, jamiki tubdan qayta qurish va tarkibiy oʻzgarishlarni yorituvchi adabiyotlarni qoʻshish mumkin. Mustaqil rivojlanish boʻyicha ilmiy bilimlarning koʻpayishi, oʻsib borishida Prezident Islom Karimovning asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Dastlabki yillarda va bugungi qadar nashr etilgan Islom Karimovning asarlari, maʼruza va chiqishlari mustaqillik davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va maʼnaviy-madaniy yangilanish jarayonlarini yoritgan¹, buyuk oʻzgarishlarning gʻoyaviy asoslari va omillarini belgilab bergan.

¹ Karimov I.A. Azaliy buyuklik maskani. // Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar T.5. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1997. – B. 171-191.; Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna boʻlaversin. // Bunyodkorlik yulidan. Asarlar T.4. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1997. – B. 340-343.; Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1993.; Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh

Mustaqillik davriga oid asarlar ko'p bo'lsada, ularda asosan mamlakat iqtisodiyoti, salohiyati, olib borilayotgan islohotlar yoritilmoqda. Tadqiq etilayotgan mavzuga oid alohida asar hali yaratilmagan, respublikaning ayrim viloyatlari umumiy tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarini o'rganish bilan bir qatorda mustaqillik davri qisqa tahlil qilingan. Tarixchi va iqtisodchi olimlar tomonidan bir qancha asarlar yaratilgan. "Mustaqillik O'zbekiston tarixining dastlabki qadamlari"¹, "Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot"², "O'zbekiston Yangi tarixi"³ kitoblari shular jumlasidandir. Markaziy va mahalliy ommaviy axborot vositalarida Navoiy viloyatida joylashgan viloyatlarning o'tmishi va bugungi kun rivojlanish odimlari haqida ko'plab maqolalar va xabarlar chop etilgan.

Mustaqillik sharoitida tariximizni chuqur o'rgana borishimiz, uning tadqiqoti natijasiga teran nazar solganimiz sari O'zbekiston hududidagi, jumladan, Navoiy viloyatidagi yirik ishlab chiqarish va sanoati tarixini muntazam o'rganilishi darajasi qayerda, qay me'yorda borayotganligini, yetakchi tarmoqlarning ishlab chiqarish hajmi islohotlar va o'zgarishlar jarayonida qanday samaralarni qo'lga kiritayotganligini ayniqsa bugun ko'proq tasavvur etmoqdamiz.

Istiqlol yillarida U.S.Alimov⁴, G.D.Yodgorova⁵, N.S.O'roqova⁶, N.M.Ziyavitdinova⁷, Z.Odinayeva¹, R.M.Qarshiyev², U.Sattorov³larning tadqiqot

etishdir. // O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. Asarlar T.13. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2005. – B. 171-200.; Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Asarlar T.8. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2000. – B. 528.; Tarixiy xotarasiz kelajak yo'q. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar T.7. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1999. – B. 132-156.; O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar T.7. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1999. – B. 370-400.; Yuksak ma'naviyatsiz kelajak yo'q. // Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar T.5. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1997. – B. 145-150.; Islohotlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo'laylik. Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B.93.; Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. Asarlar T.9. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2001. – B. 40.; Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar T.382. Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B.93.; Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohatlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish - barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. Asarlar T.11. Toshkent: O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi. 1997. – B. 318.;

¹ Alimova D. Mustaqillik O'zbekiston tarixining dastlabki qadamlari. – T., 2000. – 233 b.

² Qodirov B., Rulinov J. Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot. – T., 1998. – 235 b.

³ O'zbekiston yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.

⁴ Alimov U.S. Kichik va o'rta biznesni investitsiyalashtirishni takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) T.: 2001 y. (diss. i.f.n.)

⁵ Yodgorova G.D. Tarkibiy o'zgarishlar sharoitida Buxoro va Navoiy viloyatlarida sanoat ishlab chiqarishini oshirish imkoniyatlari. T.: 1993 y. (diss. i.f.n.)

⁶ O'roqova N.S. O'zbekistonda mustaqillik davrida sanoat sohasidagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni (Janubiy viloyatlar misolida). T.: 2004 y. (diss. avtoref)

⁷ Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat korxonalari faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish (Buxoro viloyati misolida). T.: 2006 y. (diss. i.f.n.)

ishlarida Navoiy viloyatining iqtisodiy salohiyati va bunda sanoat ob'ektlarining tutgan o'rnini haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi. Ammo, bu ishlardan ayrimlari (ayniqsa ishga aloqador bo'lgan R.Qarshiyevning dissertatsiyasi) sobiq sho'rolar davridagi sanoat korxonalar hayoti haqida tadqiqot olib borilgan. Boshqalarida esa, mustaqillik davri sanoat korxonalari haqida o'rganilsada, iqtisodiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan. Biz esa, mustaqillik yillarida ulkan bir tarixiy jarayonda Navoiy viloyati sanoat korxonalarining islohotlar sharoitidagi taraqqiyotini har tomonlama chuqur tahlil qilib, xolisona ilmiy tadqiq etishni maqsad qilib olganmiz.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O'rganilayotgan masalaning dolzarbligi va tadqiqot mavzusining tahlil etilmaganligini hisobga olgan holda 1991-2010 yillarda Navoiy viloyatidagi viloyatlarda sanoat sohasidagi o'zgarishlarni tahlil etish va to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida bozor munosabatlariga o'tish sharoitida olib borilgan keng ko'lamdagi islohotlar va bu islohotlarning samarasi ularoq, Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasini tarixiy jihatdan ilmiy yoritishni tadqiqot ob'ekti qilib oldik. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz iqtisodiy sohasida ro'y bergan tub islohotlar va buning natijasida bozorga xos qaror topib borayotgan Navoiy viloyati sanoat korxonalarida yuz berayotgan o'zgarishlarni arxiv materiallari, viloyatlar statistika boshqarmalari hamda mahalliy hokimliklarning arxivlaridagi ma'lumotlari asosida o'rganish va tahlil qilish, ko'zlangan umumiy maqsadlardan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi.

Mustaqillik yillarida Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida o'ziga xos taraqqiyot yo'lini u yerda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlarining, Oliy Majlis chiqargan qonunlar ijrosini, iqtisodiy yo'naltirilgan barqaror bozor munosabatlarining vohaga xos xususiyatlarini ochib berish;

¹ Odinayeva Z. Qizilqum sahrosida bahor(ilmiy-ommabop nashr). T.: "Muharrir" nashriyoti, 2008 yil.

² Qarshiyev R.M. Navoiy shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti: tajribalar va muammolar (1958-1990 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Andijon, 1996. – 24 b.

³ Sattorov U. Navoiy viloyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 83 b.

Sovetlar hukmronligining so‘nggi yillarida Navoiy viloyati sanoatining ahvoli;

- Mustaqillik sharoitida Navoiy viloyati sanoatining yangidan shakllantirilishi;

- Bozor iqtisodiyoti sharoitida Navoiy viloyati sanoatiga xorijiy investitsiyalarining kiritilishi;

Navoiy viloyati sanoat korxonalari qurilishida xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilgan ishlar;

Navoiy viloyati sanoat mahsulotlari va halq iste‘moli mollari ishlab chiqarishining rivojlanish bosqichlari;

Navoiy viloyati sanoat mahsuloti sifatining yaxshilanishi va eksport salohiyatining ko‘tarilishi;

Navoiy viloyati sanoat ishlab chiqarishida yuz berayotgan yangilanish jarayonini ilmiy tahlil etish;

Vohada olib borilayotgan tadbirkorlikni rivojlantirish siyosati, sanoat sohasidagi amalga oshirayotgan tadbirlar samarasini, shuningdek amalga oshirilgan ishlarda yo‘lga qo‘yilgan kamchiliklarni qiyosiy taqqoslash asosida ilmiy tadqiq etish;

Navoiy viloyati sanoatining o‘rish sur‘atlarini o‘rganish va ularga xolisona baho berish, bu boradagi yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatish;

Tadqiqot natijalari va ma’lumotlarni tanqidiy tahlil qilish, baholash asosida mustaqilligimizning hozirgi bosqichida mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatni ko‘zda tutib, uni yanada teranroq o‘rganish, hayotga tadbiq etishni takomillashtirish yuzasidan takliflar, xulosalar berish.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy yangiligi. Dissertatsiyada Vatan tarixshunosligida Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda sanoat sohasida islohotlar va ularning ishlab chiqarish rivojlanishiga ta’siri masalasi hozirgi davr ilmiy metodologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etiladi.

Mavzuni ilmiy o‘rganish jarayonida erishiladigan asosiy yangiliklar quyidagilardan iborat:

- o'rganilayotgan mavzu Respublikamiz hukumati tomonidan o'z oldimizga qo'ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya'ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash borasida olib borayotgan siyosat va amaliyotga mos bo'lib, masalani milliy o'zlikni anglash hamda yurt tarixini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tahlil etish;

- Navoiy viloyati sanoat korxonalarining mustaqillik yillaridagi holati to'g'risida tarixiy nuqtai nazardan dissertatsiyada ilk bor batafsil ma'lumotlar beriladi. Zero, Navoiy viloyati sanoati tarixshunosligimizda yaxlit bir iqtisodiy makon sifatida shu paytgacha o'rganilmagan edi.

- tadqiqotni tayyorlash jarayonida arxiv hujjatlari, ularning Navoiy viloyati viloyatlariga oid qismlari, turli statistik ma'lumotlar ilmiy jihatdan tavsiflanib, Navoiy viloyatidagi viloyatlar sanoati ishlab chiqarishining iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy jihatdan tahlil etilib, ilk bor muomalaga kiritiladi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan tarix fanini rivojlantirish, olib borilayotgan tadqiqotlarda ilmiylik, xolislik, tarixiylikka e'tibor qaratish borasida ilgari surilgan fikr va tavsiyanomalar, soha mutaxassislarining monografiya, risola va maqolalari, shuningdek, dissertatsiyalari uchun nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida olingan nazariy va amaliy xulosalardan "O'zbekiston tarixi", "Markaziy Osiyo tarixi", "O'zbekiston shaharlari tarixi", "Tarixiy o'lkashunoslik" predmetlari bo'yicha maxsus kurslar o'qish, shuningdek, ushbu yo'nalishda monografiya va risolalar yaratish hamda ilmiy maqolalar yozishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi. Dissertatsiya, uch bob va oltita reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan.

I-BOB. MUSTAQILLIK – O‘ZBEKISTON SANOATI TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI.

1.1. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston sanoatida olib borilayotgan islohotlar – taraqqiyot garovi.

Sanoat, industriya – xalq xo‘jaligining jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyoti darajasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan yetakchi tarmog‘i; sanoatning o‘zi uchun hamda xalq xo‘jaligining boshqa sohalari uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek, xom ashyo, yoqilg‘i qazib olish, energiya ishlab chiqarish, yog‘och tayyorlash, Sanoatda yoki qishloq xo‘jaligida olingan mahsulotlarga ishlov berish va ularni qayta ishlash bilan band korxonalar (fabrikalar, zavodlar, elektrostansiyalar, shaxtalar, konlar va boshqalar) majmui. Sanoat kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi va industrial o‘rni ta’minlaydi. XX asrning 80 yillarida qabul qilingan tasniflashga ko‘ra, sanoat yiriklashtirilgan 18 tarmoqqa bo‘linadi: elektroenergetika; yoqilg‘i sanoati; qora metallurgiya; rangli metallurgiya; kimyo va neft kimyosi sanoati; mashinasozlik va metallga ishlov berish; o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati; qurilish materiallari sanoati; qurilish-konstruksiyalari va detallari sanoati; oyna va chinni-fayans sanoati; yengil sanoat; oziq-ovqat sanoati; mikrobiologiya sanoati; un-yorma va aralash yem sanoati; tibbiyot sanoati; poligrafiya sanoati. Bu sanoat tarmoqlari ham o‘z navbatida – ishlov beruvchi sanoat va undiruvchi sanoat turlariga guruhlanadi¹.

Ma’lumki, sobiq tuzum davrida respublikamizning iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlangan, faqat xom-ashyo yetishtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, mash’um salbiy oqibatlariga olib kelgan paxta yakkahokimligi avjiga chiqqan edi. O‘zbekiston o‘zining qoloq ishlab chiqarish va sotsial infratuzilmasi bilan sobiq ittifoqda jon boshiga iste’mol darajasi bo‘yicha eng past o‘rinda turardi². Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, paxtaning 95 foizi qayta ishlanmasdan, respublikadan tashqariga olib ketilar edi. Umuman, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘p bo‘lsada,

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 124-b.

² Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T., “O‘zbekiston”, 1995, 18-bet.

ularni qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari va korxonalari rivoj topmadi. Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishidagi nomutanosiblik O‘zbekistonga yuqoridan turib zo‘rlab tiqishtirilgan ixtisoslashuv oqibati edi. Sobiq sho‘rolar davrining 50 yili mobaynida yengil sanoatning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54 foizdan 37 foizgacha, oziq-ovqat sanoati ulushi esa 30 foizdan 14 foizgacha tushib qoldi¹.

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan keyin sanoatda tub islohotlar amalga oshirildi, ko‘pgina tarmoqlardagi sanoat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarildi va xususiylashtirilib, davlat-aksiyadorlik, korporativ, jamoa, xususiy va boshqa tashkiliy-huquqiy mulk shakllariga aylantirildi. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarida mulk shakllarini o‘zgartirish va tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirishga qaratilgan tub islohotlar mamlakat mustaqilligini mustahkamlashni, O‘zbekistonning kelajaqda rivojlangan mamlakatlar qatorda chiqishi va jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydi. Istiqlolimizning ilk yillaridayoq, Prezidentimiz yuksak demokratik talablarni hayotimizga to‘liq joriy etish, fuqarolik jamiyati barpo qilish, farovon hayotga erishish bilan chambarchas bog‘liq va uzluksiz davom etadigan jarayon ekanini ta’kidlab, bunday darajaga ko‘tarilish hech qachon osonlikcha kechmasligini uqtirib o‘tgan edi.

I.A.Karimov “O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” risolasida mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan keyingi dastlabki yillardagi rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, O‘zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiyotni isloh qilish dasturining o‘zagi sifatida 5 ta asosiy tamoyilni belgilab berdi. Ilmiy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan bu dastur nafaqat o‘sha davrdagi avlod taqdiri, balki kelajak avlodlarimiz taqdirini ham o‘ylab tuzilgan bo‘lib, eski tuzumdan meros bo‘lgan illatlarni tezroq bartaraf etish, mamlakatimizning rivojlangan, madaniyatli davlatlar darajasiga chiqib olishini ta’minlashni ko‘zda tutgan edi. Bu haqiqatan ham Prezidentimiz nomi bilan bevosita bog‘liq holda jahonga tanilgan taraqqiyotning o‘zbek modeli edi².

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 124-b.

² O‘zbekiston yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. 112-bet.

Islohotlarning o‘zbek modeli bundan oldin dunyoda yaratilgan va mavjud bo‘lgan modellarning birortasini takrorlamagan holda, o‘z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modeli bo‘ldi. Taraqqiyotning o‘zbek modeli quyidagi besh tamoyilga asoslanadi:

birinchidan, iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ya’ni iqtisodiyot siyosatdan ustun bo‘lishi kerak. Shuningdek, ichki, tashqi va iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan holi etishni ta’minlash zarur;

ikkinchidan, o‘tish davrida davlat asosiy islohotchi bo‘lishi lozim. U islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi shart;

uchinchidan, qonun ustuvorligiga erishish, qonunlarga qat’iy rioya etish lozim. Buning ma’nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va qonunlarni barcha hech istisnosiz hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim;

to‘rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazish kerak. Aholining salkam 50 foizini 16 yoshga yetmagan bolalar tashkil etadigan O‘zbekistonda buning alohida ahamiyati bor;

beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiyotning ob’ektiv qonunlarini e’tiborga olib, yaqin o‘tmishdagi “inqilobiy sakrashlar”siz, ya’ni evolyutsion yo‘l bilan puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va yurtimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida chuqur tanazzuldan xalos bo‘lib, barqaror taraqqiyot va aholi turmush farovonligiga erishishga qaratilgan tub o‘zgartirishlar siyosatining strategik maqsadlari I.A.Karimov tomonidan quyidagicha izohlab berildi:

- ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;

- ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo‘lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralari bilan

rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;

- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish;

- iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydigan chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;

- kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish¹.

Mustaqillikning ilk yillarida, ya'ni ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikki vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yildi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashtirish;

- respublikaning o'ziga xos sharoiti va xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish;

Mazkur vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va amalga oshirildi:

- o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

- mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

- ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T., “O'zbekiston”, 1995, 18-bet.

Respublikada bozor munosabatlariga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyot va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga, isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinchi bosqichda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirish, investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yildi. Shu maqsaddan kelib chiqib, mazkur bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagi tartibda belgilandi:

- davlat mulkini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish;
- ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash;
- milliy valyuta – so'mni yanada mustahkamlash;
- iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettirildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, mazkur bosqichda "erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir"¹. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutdi:

- iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish hamda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: "O'zbekiston", 2000, 15-bet.

- xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yoʻnaltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay xuquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor oʻrin egallashiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng koʻlamda integratsiyalashuvini taʼminlash;
- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy oʻzgarishlarni izchil davom ettirish.

Shunday ekan, demokratik jamiyat qurishdan koʻzlangan maqsad yurtimizda istiqomat qiladigan barcha insonlar uchun munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlar kabi kafolatlangan yuksak turmush darajasi hamda erkinliklarni taʼminlashdan iborat. Mazkur ezgu maqsadni amalga oshirish uchun birlamchi ahamiyat kasb etgan, yaʼni ijtimoiy bozor iqtisodiyotini yaratishga yoʻnaltirilgan iqtisodiy islohotlarga eʼtibor qaratildi.

Iqtisodiy islohotlar esa oʻz oʻrnida jamiyatimizning siyosiy, ijtimoiy, maʼnaviy hamda davlat qurilishi sohalaridagi tub islohotlar bilan chambarchas, uzviy bogʻliqlikda amalga oshirib kelinmoqda.

Albatta shundan kelib chiqib aytadigan boʻlsak bu islohotlar natijasida bir muncha oʻzgarishlar va yangilanishlar jarayoni roʻy berdi. Respublika iqtisodiyotida muhim oʻrinda turadigan sanoat tarmoqlarida tuzilmaviy qayta tarkiblash amalga oshirildi, koʻplab kichik va oʻrta korxonalar tashkil topdi (2000 yilda 6,4 ming oʻrta, 20,4 ming kichik korxona ishladi). Chet el kapitali bilan hamkorlikda koʻpgina sanoat tarmoqlarida qoʻshma korxonalar tashkil etildi (Asaka avtomobil zavodi, «British Ameriken tobakko», «Zarafshon-Nyumont», «Kabul-tekstaylz», «Koka-kola», «Samkoch-avto» koʻshma korxonasi va boshqalar). Sanoat tarmoqlariga, ayniqsa, mahalliy xom ashyoni qayta ishlaydigan

tarmoklarga chet el investitsiyalarini jalb etish faol davom etmokda¹. Respublika sanoatida tarmoklarning tutgan o'ri har xil. Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat tarmoklaridir. Kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, yengil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika kompleksining o'ri alohida. Uning tarkibiga gaz, ko'mir, neft va neftni qayta ishlash sanoati, energetika kiradi. O'zbekiston jahondagi 10 ta yirik gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. 2002 yilda O'zbekiston sanoatda 1467 ta o'rta va yirik ishlab chiqarish birlashmalari va korxonalar ishladi. Bu korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar salmog'i umumiy ishlab chiqarish hajmining 88,5%ni tashkil etdi. 396 dan ortiq nomdagi yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Davlat korxonalari soni salmog'i 4,6%, nodavlat sanoat korxonalari soni 95,4% ni tashkil etdi. Sanoat-ishlab chiqarish xodimlarining 20,5% davlat korxonalarida, 79,5% nodavlat korxonalarida band bo'ldi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning umumiy hajmida davlat korxonalari hissassi 28,6%ni, nodavlat sektor korxonalari hissassi 71,4% dan iborat bo'ldi.

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 204-bet.

1.2. Navoiy viloyati – mamlakatimizda yuqori sanoat potensialiga ega bo‘lgan viloyat.

Navoiy viloyati deganda avvalo, o‘zining iqtisodiy salohiyati, zamonaviy industriyaning yirik tarmog‘i, kon, ayniqsa, qudratli oltin qazish sanoati bilan O‘zbekistondagina emas, balki uning tashqarisida ham juda yaxshi ma’lum bo‘lgan voha ko‘z oldimizda nomayon bo‘ladi.

Navoiy viloyati mamlakatimizning hududiy jihatdan eng yirik mintaqalaridan bo‘lib, hududiy jihatdan Qoraqalpog‘iston Respublikasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Viloyat yer maydoni jihatdan O‘zbekiston hududining 25 foizdan ortiqrog‘ini egallaydi. Bu haqda muhtaram yurtboshimiz shunday deydi: “Navoiy viloyati deganda – avvalo ko‘z oldimizga buyuk shoirimiz Alisher Navoiy nomini sharaflab kelayotgan, ko‘ngli ochiq, zahmatkash, saxovatli insonlar, bunyodkorlik bilan band bo‘lgan ko‘p millatli xalqni tasavvur qilaman. Navoiy viloyati deganda – bu go‘zal vohaning betakror tabiati, cheksin cho‘l va dalalar, bepayon yaylovlar bilan birga, ulkan sanoat mintaqasi ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Navoiy viloyatida Olloh o‘zi xalqimizga in’om etgan, yurtimiz salohiyatini yuksaltirishga xizmat etadigan, boshqacha aytganda, belimizni baquvvat, qadr – qimmatimizni baland, qo‘limizni uzun qiladigan, odamlarimizning farovon turmushlariga asos bo‘ladigan ko‘p – ko‘p tabiiy boyliklarning ulkan zahirolari mavjud. Bulardan eng asosiysi – o‘zining yuksak sifati bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan qizilqum oltinidir. Nufuzli Tokio birjasi o‘zbek oltiniga sifat sertifikatini berib, uni oltin etaloni – ya’ni butun dunyo bo‘yicha tilla sifatini baholashning mezoni qilib belgilab qo‘ydi. Ko‘hna tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimiz haqida gapirganda, birinchilardan bo‘lib Alisher Navoiy hazratlari ko‘z oldimizga keladi. Chunki mo‘‘tabar zot millatimizning sharafini ko‘klarga ko‘targan, yurtimiz dovruq‘ini butun olamga tarannum etgan”¹.

Darhaqiqat, Navoiy viloyati janubi-g‘arbiy tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari bilan, shimoldan Qozog‘iston

¹ Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild, T.: “O‘zbekiston”, 2002 yil, 372-bet.

respublikasi, va Jizzax viloyati bilan, sharqdan Samarqand viloyati bilan chegaradoshdir.

Viloyat hududi 111,0 ming kv km bo'lib, respublika hududining 25 foizini yoki to'rt dan bir qismini egallaydi. Viloyatda 3 ta yirik suv havzasi mavjud. Shundan Aydarko'l suv havzasi umumiy maydoni 145503 ga yetadi. Ushbu suv havzasi 41,5 mlrd metr kub sig'imga ega. To'dako'l suv havzasi 21673 ga maydonni egallab, 1,75 mlrd metr kub suv sig'imiga ega. Sho'rko'l suv havzasi 2516 ga maydonni egallab, suv sig'imi 0,22 mlrd metr kubni tashkil etadi¹.

Undan tashqari viloyatning Qiziltepa tumani hududida Quymazor suv ombori mavjud bo'lib, uning maydoni 650 ga ni tashkil etadi. Ushbu suv ombori suv sig'imi 0,83 mlrd metr kub ni tashkil etib, asosan Buxoro viloyati aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

Viloyatning shimoliy hududlarida o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 232 mm . ni, janubiy hududlarida esa o'rtacha yillik yog'ingarchilik miqdori 170 mm . ni tashkil etadi. Viloyat iqlimi mo'tadil. Yoz oylarida havo harorati + 48,2 gradus temperaturagacha isib ketishi va qish oylarida – 32,3 gradusgacha sovib ketishi kuzatilgan.

Viloyatning markazi Navoiy shahri hisoblanib, dengiz sathidan 340 metr balandlikda joylashgan².

Geografik joylashuviga ko'ra, Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, shimoliy va shimoliy-sharqdan Qozog'iston, janubiy-sharqdan Jizzax, Samarqand, janubdan Qashqadaryo, janubiy-g'arbdan Buxoro viloyatlari - bilan chegaradosh. Uning hududi 111,0 ming kv.km ga teng. Hududining asosiy qismi bepoyon va boyliklarga kon Qizilqum sahrosiga to'g'ri keladigan viloyat iqtisodiy jihatdan mamlakatimizning yetakchi viloyatlaridan biri.

¹ Sattorov U. Navoiy viloyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.- 283 bet.

² O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 124-b.

2002 yil 31 mayda Prezidentimiz I.A.Karimov Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kegashining navbatdan tashqari sessiyasida soʻzlagan nutqlarida Navoiy viloyatining tashkil etilish tarixi haqida quyidagi fikrlarni keltirib oʻtgan edilar:

«Navoiy viloyatini Oʻzbekistonimizning oʻziga xos va betakror xazinasini, desak, hech qanday mubolagʻa boʻlmaydi. Bu yerdagi koʻpgina konlar oʻzining noyob xususiyatlari va zahiralari nuqtai nazaridan nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoda kamdan-kam topiladi. Muruntov, Dovgiztogʻ, Koʻkpatas, Omontoytogʻ kabi oltin konlari, Qizilqumdagi fosforit koni mamlakatimizdan olinishlari ham yaxshi maʼlum.

Bu maʼlumotlar, albatta, oddiy mutaxassislar ham ayon, lekin vohaning iqtisodiy salohiyatiga boshqa manbalar, aytaylik, zamonaviy aerokosmik va geodeziya texnikasi orqali olingan maʼlumotlarga asoslanib baho beradigan boʻlsak, uning bagʻrida yana qancha - qancha tabiiy boyliklar, noyob zahiralari yashirinib yotganiga, ularning hajmi va koʻlami esa strategik jihatdan istiqbolli ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Bir soʻz bilan aytganda, bu viloyat oʻzining iqtisodiy salohiyatiga koʻra maʼmuriy-hududiy birlik boʻlishi uchun barcha asoslari bor edi va shularni hisobga olib, bundan yigirma yil muqaddam bu yerda Navoiy viloyati tashkil etilgan edi»¹.

Navoiy viloyatining tashkil topishi Qizilqum bagʻridagi bebaho tabiiy boyliklarni oʻzlashtirish maqsadida bunyod etilgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir.

Qizilqum mineral boyliklarini oʻzlashtirishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan kon-metallurgiya kombinatining qurilishi yangi sanoat markazi barpo etilishi uchun asos boʻldi. 1957 yilda Buxoro viloyatining Karmana tumani hududida yangi sanoat shahrini barpo etish uchun bosh reja ishlab chiqildi. 1958 yilning 3 sentabrida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Soveti Prezidiumining farmoniga muvofiq Karmana tumani hududida barpo etishga kirishildi. Shahar qurilishi loyihasining rahbari boʻlgan A.V.Korotkovning hikoya qilishicha, shahar

¹ Prezidentimiz I.A.Karimovning 2002 yil 31 mayda Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida soʻzlagan nutqi. Xalq soʻzi gazetasi, 2002 yil, 1 iyun.

qurilishida o'zbek poyeziyasidagi g'oyalar uyg'unlashib ketganligi va shundan kelib chiqib unga Alisher Navoiyning nomi berilsa maqsadga muvofiq bo'lishini aytganlar. Shu tariqa, yangi barpo etilgan sanoat shahriga Alisher Navoiy nomi berildi. Shaharning bunday nomlanishida Sh.Rashidovning sa'y-harakatlari va xizmatlari unutilmasdir.

Buyuk shoir va mutafakkir bobomiz nomini ulug'lab kelayotgan, mamlakatimizning eng go'zal shaharlaridan biri, Navoiy viloyatining ma'muriy, iqtisodiy va madniy markazi bo'lgan Navoiy dastlab 25 ming aholi uchun posyolka sifatida qurila boshlagan edi. Keyingi yillarda Navoiy shahri ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan har tomonlama taraqqiy etdi. Bugun shaharda 128 ming aholi istiqomat qilmoqda¹.

Mamlakatimizning xaritasida o'tgan asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan Navoiy shahri qudratli sanoat markaziga aylandi va qisqa vaqt ichida yurtimizning eng go'zal kentlari qatoridan joy oldi. QZV endilikda shahar Qizilqumni yanada keng miqiyoslarda o'zlashtirish, uni dunyo xaritasidagi yosh va kelajagi buyuk davlatning chinakam xazinasiga aylantirish yo'lidagi bunyodkorlik ishlarining chinakam markaziga aylandi.

Mustaqilik yillarida shahar har jihatdan ko'rkamlashib, zamonaviy qiyofa kasb etdi, mamlakatimizning yirik madaniy-ma'rifiy markazlaridan biriga aylandi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Issiqlik elektr stansiyasi, «Navoiy azot», «Elektrokimyozavod» kabi qudratli sanoati gigantlari qatoriga yangi ishlab chiqarish ob'ektlari qo'shildi.

Qizilqumning ulkan tabiiy boyliklarini o'zlashtirish maqsadida kon-metallurgiya kombinatining qurilishi yangi sanoat o'lkasini barpo etilishi uchun asos bo'ldi. Navoiy shahri 1982 yilda viloyat markazi maqomini oldi.

Navoiy viloyati 1982 yil 20 aprel № 2247 X O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi Qarori asosida tashkil etilgan. Ushbu Qarorga asosan Buxoro viloyati tarkibidagi Navoiy, Zarafshon, Uchkuduq shaharlari, Navoiy, Navbahor, Qiziltepa,

¹ Sattorov U. Navoiy viloyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.- 23 bet.

Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari, Samarqand viloyati tarkibidagi Nurota va Xatirchi tumanlari Navoiy viloyati hududlarini tashkil etdi¹.

Uzoq yillar davomida O‘zbekiston avval Chor Rossiyasining, so‘ngra sobiq Ittifoqning sanoati uchun xom ashyo yetkazib beruvchi o‘lka sifatida rivojlandi.

O‘zbekistonda faqat qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xom ashyo sifatida olib ketilmadi, balki respublikamizning yer osti mineral boyliklari ham xom ashyo sifatida qazib olib ketildi.

«Navoiy viloyatida Olloh o‘zi xalqimizga in‘om etgan, yurtimizni baquvvat, qadr-qimmatimizni baland, qo‘limizni uzun qiladigan, odamlarning farovon turmushiga asos bo‘ladigan ko‘pdan-ko‘p tabiiy boyliklarning o‘lkan zahiralari mavjud. Bularning eng asosiysi o‘zining yuksak sifati bilan butun dunyoda mashhur bo‘lgan Qizilqum oltinidir».

Sobiq SSSR tuzumi davrida bu yurt mustamlakachilikning yaqqol timsoli edi. Bu yerda ishlab chiqilgan yer osti va yer usti boyliklari O‘zbekiston bilan, uning mehnatkash xalqi bilan hisob-kitob qilinmay tashib ketilardi. Ishlab chiqarilgan yurt boyligiga O‘zbekistonliklar emas, aksincha, chetdan kelgan rahbarlar egalik qk qilganlar, ular o‘z xohishlariga qarab ish tutganlar.

Darhaqiqat, biz turg‘unlik davrlari deb ataydigan paytlarda mazkur imkoniyatlardan foydalanishga bir tomonlama yondoshib kelingan. Tuprog‘i shu yerda tug‘ilib o‘sgan va shu maskanni ona - Vatan deb ko‘ziga surtgan, qish sovug‘i va yoz jazirasida moddiy boyliklar yaratgan kishilar ota-bobo meros tuprog‘i bag‘rida yetishgan boyliklar manfaatini ko‘rmagan.

Yana bir afsuslanarli jihati shundanki, viloyat o‘sha davrlarda sarson va sargardon bo‘lib boshqa viloyatlarga qo‘shib yuborilgan edi. Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston SSRning bu yosh viloyati taqdiri goh u, goh bu viloyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘ldi.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1988 yil 9 sentabr Qaroriga asosan Navoiy viloyati ma‘muriy birlik sifatida tugatilib, uning hududlari Samarqand viloyati hududiga qo‘shib yuborilgan. Sovet tuzumining so‘nggi

¹ Qarang: Navoiy viloyati hokimligi rasmiy veb sayti. www.navoi.uz

yillarida ayrim kaltabin rahbarlarning sobiq Markazga yaxshi ko‘rinish niyatida olib borilgan siyosati tufayli shunday yo‘l tutilgan edi.

O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1989 yil 16 mayidagi «Samarqand viloyati hududlarini bir qismini berish» to‘g‘risida Qarori qabul qilindi. Bu Qaror ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Ministrlar Soveti 1989 yil 19 may №148-r «Samarqand viloyatlari hududlarining bir qismini Buxoro viloyati tarkibiga berish» to‘g‘risidagi farmoyishi qabul qilindi. Shu munosabat bilan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Navoiy, Navbahor, Qiziltepa, Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari Buxoro viloyati tarkibiga kiritilgan¹.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, Prezidentimiz rahnomoligida, navoiyliklar xohish irodasi bilan Navoiy viloyati qayta tiklandi. Navoiy viloyati faollari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov so‘zga chiqib, viloyat aholisining talab istaklarini, mintaqada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish istiqbollarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kegashi Navoiy viloyatini qayta tiklash va bu to‘g‘risida Oliy Kengash rayosatining O‘zbekiston Respublikasi tarkibida bo‘lgan ma‘muriy markazi Navoiy shahri bo‘lgan avvalgi chegaradagi Navoiy viloyatining qayta tiklash to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilinganligini ta’kidladi.

1992 yil 27 yanvar O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumning «O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Navoiy viloyatini tashkil etish» to‘g‘risidagi farmoni asosida Navoiy viloyati 1982 yilgi chegaralarida tashkil etildi.

Mustaqillik tufayli viloyat o‘z o‘rnini topdi, qayta tashkil etildi. Bu haqda Prezident I.Karimov o‘z nutqida shunday degan edi: "Biz 1992 yilda bu vohaning beqiyos salohiyatini ro‘yobga chiqarish, uning tabiiy boyliklarini Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz manfaati yo‘lida xizmat qildirish maqsadida, shu yerda yashaydigan odamlarning kelajagini o‘ylab, Navoiy viloyatini qaytadan tashkil etganimiz, iqtisodiy nuqtai nazardan ham, tarixiy nuqtai nazardan ham, o‘ylaymanki, bu ish adolatli ish bo‘lgan. Mustaqillik yillarida tarixiy adolatni

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 128-b.

tiklab, Navoiy viloyatini qayta tashkil etganimiz bu mintaqani jadal rivojlantirish, eng muhimi, ana shu zaminda qazib olinayotgan bebaho boyliklarsh el-yurtimiz manfaati yo'lida ishlatish borasida yangi ufq va imkoniyashlarni ochib berdi va buning qanday ulkan ahamiyatga ega bo'lganini hayotning o'zi bugun o'zi tasdiqlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi xaritasidan yangi viloyat bo'lib o'rin egallagan navqiron viloyatning yosh davlatimiz istiqloli sahifasidagi odimlari boshlandi. Endigina tashkil topgan Navoiy viloyati oldida bir qator qiyinchiliklarni yengib o'tish vazifasi turardi.

Birinchidan, Viloyat aholisi ko'p millatli bo'lib, ularning yakdilligi, ahilligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, yirik kimyo va boshqa zaharli korxonalar tufayli yuz berayotgan ekologik muammolar bartaraf etish.

Uchinchidan, viloyat sanoatida bir qancha muammolar paydo bo'ldi. Chunki bizga ma'lumki, Navoiy viloyatidagi ko'pgina korxonalar bevosita Sobiq Ittifoq tasarrufida bo'lib, uning tashkilot va vazirliklariga buysunardi. Shuningdek bu korxonalarning faoliyati ko'rsatishi uchun xom-ashyolar asosan boshqa hududlardan keltirilar edi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi, ayniqsa chorvachilikning imkoniyatlari katta bo'lib, uni rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Beshinchidan, aholini turmush sharoitlarini yaxshilash, qishloqlarda yashovchi aholini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash.

Oltinchidan, maorif, sog'liqni saqlash kabi masalalarini hal etish vazifalari turardi¹.

Xullas, viloyatimiz qayta tiklangandan buyon o'tgan davrda mehnatkashlar har qanday og'ir sharoitda ham vazminlik va uyushqoqlik namunalarni ko'rsatgan holda mehnat qilib, mustaqilligimizni mustahkamlash choralarni ko'rdilar.

Navoiy viloyati Respublikamizdagi sanoat eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishida hamda ko'p

¹ Qarang: Navoiy viloyati hokimligi rasmiy veb sayti. www.navoi.uz

qirrali, sogʻlom iqtisodiy sistemani tashkil etishda, shunigdek yangi davlat mustahkamlanishini yanada mustahkamlashda, uni har tomonlama moddiy va maʼnaviy yuksalishini taʼminlashda Navoiy viloyatining ham munosib hissasi bor. Viloyatda 1960 - 80 yillarda paydo boʻlgan yuqori darajadagi bunyodkorlik va ishlab chiqarish surʼati soʻndirilmadi, aksincha istiqlol sharofati bilan jahon andozalariga mos yangi korxonlar, texnologiyalar shundogʻam baqquvat iqtisodiy-ijtimoiy tizimga qoʻshildi.

Navoiy - sanoat sohasidagi oʻlkan salohiyatga eta viloyat. Bu yerda 20 dan ziyod yirik sanoat korxonalari faoliyat yuritayotganligi shundan dalolat beradi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati (Navoiy KMK) – «Qizilqumnodirmetalloltin» davlat konserni tarkibidagi yirik sanoat korxonasi. 1958 yilda tashkil topgan. Kombinatda uran, oltin, kumush, qurilish materiallari, marmar mahsulotlari, fosforitlar qazib olinadi. Bundan tashqari, sulfat kislota, zargarlik, trikotaj va toʻqimachilik buyumlari, mashinasozlik va maishiy texnika ishlab chiqariladi. Qidiruv-razvedka ishlari, maʼdanni qazib olish va uni qayta ishlashdan boshlab to uran oksidi va chala oksidi, sof (999,9) oltin olishgacha boʻlgan tugallangan jarayonni amalga oshiruvchi sanoat korxonasi hisoblanadi¹.

Kombinat tarkibida respublikaning 5 ta viloyatida joylashgan 5 ta kon boshqarmasi va ular negizida qurilgan Navoiy, Uchquduq, Zarafshon, Nurobod, Muruntov konidan oltin rudalari qazib olish.

Shimoliy kon boshqarmasi (Uchquduq shahri) 1958 yilda barpo etilgan. Uchquduq koni negizida uran maʼdanini ochiq va yer osti usulida, yer ostida tanlab eritmaga oʻtkazish usulida qazib olish va qayta ishlash; «Koʻkpatas» konining tarkibida oltin boʻlgan maʼdanlarini qazib olish va qayta ishlash korxonaning asosiy faoliyat yoʻnalishini tashkil etadi; Markaziy kon boshqarmasi (Zarafshon shahri) – Muruntov noyob oltin konini oʻzlashtirish uchun 1964 yilda barpo etilgan. 1967 yilning mart oyidan boshlab ochiq usulda kon ishlarini olib boradi; Janubiy kon boshkarmasi (Nurobod shahri) – Sobirsoy uran konini oʻzlashtirish

¹ Кучерский Н. И., Флагман индустрии независимого Узбекистана, Т., 1997. С. 75.

maqsadida 1964 yilning yanvar oyida tashkil etilgan (uran qazib olish; Zarmiton va Marjonbuloq konlaridagi tarkibida oltin bo'lgan ma'danlarni qazib olish; marmar qazib olish va undan silliqlangan, pardozlash taxtachalarini ishlab chiqarish; turli diametrga ega bo'lgan polivinilxlorid va polietilen quvurlarni va boshkalar ishlab chiqarish). 5-kon boshqarmasi (Zafarobod shahri) – Buxoro viloyati hududida joylashgan. 1971 yilning fevralida Bukinoy uran konlari guruhini sanoat usulida o'zlashtirish uchun Leninobod kon-kimyo kombinatining bo'linmasi sifatida tashkil etilgan. 1993 yilda Navoiy KMK tarkibiga uning tarkibiy bo'linmasi xuquqi bilan kirgan (yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulida uran qazib olinadi); 2-kon boshkarmasi (Krasnogorsk shaharchasi) – Toshkent viloyatining Parkent tumani hududida joylashgan. 1954 yilda Chovli uran konini o'zlashtirish uchun kon qazish korxonasi sifatida tashkil etilgan. 1995 yildan esa Navoiy KMK tarkibida (pardozlovchi gabbro toshini sanoat usulida qazib olish; fosforit xom ashyosini qayta ishlash); «Navoiy mashinasozlik zavodi» ishlab chiqarish birlashmasi – 1963 yilning oktabrda kombinat bo'linmalarining ish faoliyatini ta'minlash uchun ta'mirlash bazasi sifatida tashkil etilgan; Zargarlik zavodi (Zarafshon shahri) – 1992 yilda O'zbekiston – Amerika qo'shma korxonasi sifatida tashkil qilingan. 1996 yildan kombinat bo'linmasi (zargarlik buyumlarini yasash); «Agama» davlat trikotaj firmasi – 1990 yilda xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha qo'shma korxona sifatida tashkil etilgan. 1997 yildan boshlab ustki trikotaj buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, Navoiy KMKning sho'ba korxonasi; Zarafshon qurilish boshkarmasi – 1967 yilda tashkil topgan. 7 qurilishmontaj boshqarmasi, temir-beton buyumlari zavodi, mexanizatsiyalashtirilgan ishlar boshqarmasi, ishlab chiqarish-texnologik-butlash boshqarmalarini o'z ichiga oladi, sanoat va fuqarolik qurilishini amalga oshiradi, avtomobil va temir yo'llari qurilishini olib boradi; Kizilqum fosforit majmuasi – ma'dan kazib olish va fosforit unini ishlab chiqarish bo'yicha korxonaning birinchi navbati 1998 yilda ishga tushirildi. 2001 yilning avgust oyidan kuydirilgan fosforit konsentratini ishlab chiqaradi va uni Samarqand kimyo zavodi hamda Olmaliq «Ammofos» aksiyadorlik jamiyatiga yetkazib beradi.

O'zbekiston mustakillikka erishganidan so'ng mamlakatda oltin va uran qazib olish sanoatining rivojlani-shida yangi tarixiy bosqich boshlan-di. Bu davr mobaynida Navoiy KMKda Uchqudukda oltin ajratib olish majmu-asi, 3gidrometallurgiya zavodi va Ko'kpatas hamda Davg'iztovda oltin konlarining qurilishi nihoyasiga yetkazildi va ular ishga tushirildi, «Zarafshon-Nyu-mont» qo'shma korxonasi barpo qilindi, emulsiyali portlovchi moddalar ishlab chiqaruvchi zavod qurildi.

Kombinatda ishlab chiqarilgan oltin yombilar. Tarkibida oltin mavjud bo'lgan ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha Navoiy KMK ko'p yillar mobaynida yuqori texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan barqaror ishlab kelmoqda. Mamlakat mustaqilligi yillarida oltin ishlab chiqarish 1,5 baravar ko'paydi. Ishlab turgan korxonalarni texnik qayta jihozlash, yangi navbatlarni qurish, shuningdek, oltin ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beruvchi eng yangi ilmiy-texnik tadqiqotlar joriy etildi¹.

Kombinat O'zbekistondagi yirik ilmiy markazlar va muassasalar, o'quv yurtlari, jahondagi konchilik va rangli metal-lurgiya sanoatidagi eng yirik kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi. Mashhur firmalar bilan uzok muddatli mustahkam aloqalar o'rnatgan. Navoiy KMK «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan. Kombinat direktori N. I. Kucherskiy va ekskavator mashinisti A. I. Paninga O'zbekiston Qahramoni unvoni berilgan, ko'pgina xodimlar mehnatdagi yutuqlari uchun O'zbekiston Respublikasining orden va medallari bilan mukofotlangan.

«Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati – O'zbekistondagi yirik kimyo sanoati korxonasi. «O'zkiyosanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida. Navoiy shahrida joylashgan. Korxonada ishlab chiqariladigan asosiy mahsulot turlari: mineral o'g'itlar, nitron tolasi, sirka kislotasi, tiomochevina, xlor va xlor mahsulotlari, kaustik soda. Bundan tashqari, 70 dan ortiq turdagi mahsulotlar, organik va noorganik kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqariladi. Mineral o'g'itlar, turli xil organik sintez mahsulotlari va akril tolasi (nitron) ishlab chiqarish

¹ Кучерский Н. И. и др., Навоийский горно-металлургический комбинат: история создания и развития, Т., 2002. С. 114.

maqsadlarida tabiiy gazni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxona sifatida qurilgan. Tabiiy gaz, havo, kaustik soda, osh tuzi va boshqa asosiy ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

Zavod 1964 yilda Navoiy kimyo kombinati nomi bilan ishga tushirildi. Shu yili kuchsiz azot kislotasi ishlab chiqarish bo'yicha korxonada birinchi agregat foydalanishga topshirildi. 1965 yildan ammiak korxona to'liq hajmda ishlashga o'tdi.

Xom ashyodan kompleks foydalanish natijasida korxonada nitron – «sun'iy jun» tolasi ishlab chikaruvchi zavod qurilib, 1971 yilda ilk mahsulot olindi. Shundan beri to'qimachilik, yengil va boshqa sanoat uchun o'ta muhim hisoblangan «sun'iy jun» ishlab chikariladi. 1965-1975 yillarda ammiak va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishning 1-2-3 navbatlari ishga tushirildi. 2001 yilda Germaniyaning «Lurgi Xemnits GmBX» firmasining ishtirokida qurilgan va eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan xlor, o'yuvchi soda, xlor kislotasi va natriy gipoxlorit ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Birlashmada xlorni qayta ishlab polivinilxloridga aylantirgan holda kaustik soda ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi navbat sexini qurish loyihasi ustida ish olib borilmoqda.

«Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati mahsulotlari Rossiya, Eron, Tojikiston, Ukraina, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, AQSh, Bolgariya davlatlariga eksport qilinadi. Navoiy kimyo kombinata 1975 yilda «Navoiyazot» ishlab chiqarish birlashmasiga, 2002 yilda «Navoiyazot» ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi. 2003 yilda esa korxonada 11 mingga yaqin muhandis-texnik xodimlar va ishchilar mehnat qiladi.

Navoiy issiklik elektr stansiyasi - O'zbekistondagi yirik issiqlik elektr stansiyasi. «O'zbekenergiya» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida sho'ba korxona. Navoiy sh.ning Karmana tumani hududida joylashgan. 1960-1981 yillarda qurilgan. Birinchi agregati 1962 yil fevralda ishga tushirilgan. Elektr stansiyasining asosiy uskunalari ochiq havoda o'rnatilgan. Asosiy yoqilg'i turi –

tarkibida oltingugurt bo'lgan tabiiy gaz hisoblanadi, ehtiyot yoqilg'isi sifatida esa mazutdan foydalaniladi¹.

Stansiyada o'rnatilgan quvvatlari 1250 MVt bo'lgan 11 ta turboagregat (6 ta blok), 8 bug' qozoni bor. Bug' kozonlari 540° issiklikda va 130 atm. bosimidagi bug'ni ishlab beradi. Suvni Zarafshon daryosidan oladi.

Navoiy issiqlik elektr stansiyasi O'zbekistonning janubi-g'arbiy hududlarini elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan asosiy manbadir. Stansiya Qizilqumdagi tog'-kon va gaz sanoati korxonalariga, Navoiy «Elektrkimyo-zavodi», «Qizilqumsement» korxonasiga, Amu-Buxoro, Qarshi magistral kanallaridagi nasos stansiyalariga, Buxoro, Samarqand, Kattaqo'rg'on sh.lari iste'molchilariga elektr energiyasi beradi. Shuningdek, Navoiy shahridagi korxonalarni va kommunal-maishiy ehtiyojlarni issiq suv bilan ta'minlaydi. Elektr stansiyasi kuchlanishi 220 ming voltli elektr uzatish liniyalari bilan Urganch sh.dagi taqsimlash qurilmasi orqali Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasiga, Kattaqo'rg'on, Samarqand shaharlaridagi taqsimlash qurilmalari orqali O'rta Osiyo Birlashgan energetika tizimi («Energiya» birlashgan dispetcherlik markazi)ga ulangan. Stansiyada 5931,5 mln. kVt-s elektr energiyasi ishlab chiqariladi, iste'molchilarga 3042 ming Gkal issiklik yetkazib beriladi².

Navoiy «elektrkimyo zavodi» aksiyadorlik jamiyati – O'zbekistondagi eng yirik kimyo kombinatlaridan biri. «O'zbekkimyosanoat» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi tarkibida. O'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari (gerbitsidlar, insektoakaritsidlar, zootsidlar, o'sishni boshqaruvchi moddalar), atsetilen qurumi, aktivlashtirilgan ko'mir, oddiy superfosfat, sirka kislotasi, A, V markali etilatsetat, metilatsetat, suyuq shisha, xalq iste'mol mollari – osh tuzi, yodlangan osh tuzi va b. mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Korxona 1971 yil Navoiy kimyo kombinati tarkibidan Navoiy elektr-kimyo kombinati direksiyasi sifatida ajralib chiqdi. 1972 yil korxonani kengaytirish uchun Navoiy tumanida 935 ga yer ajratildi va uning birinchi navbatini loyihalashtirish

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 124-b.

² Odinayeva Z. Qizilqum sahrosida bahor(ilmiy-ommabop nashr). T.: «Muharrir» nashriyoti, 2008 y. -115-bet.

ishlari boshlandi. Dastlab xlororganik moddalar ishlab chiqarishga mo'ljallangan. 1976 yildan korxona o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashdi. 1976–1980 yilda uning birinchi navbati qurildi. 1980 yilda birinchi mahsulot – katoroy gerbitsidi ishlab chiqarildi. Kombinat 1981 yildan Navoiy «Elektrokimyo zavodi» deb nomlandi, 1994 yildan yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati, 1996 yildan Navoiy «Elekombinatrkimyo zavodi» aksiyadorlik jamiyati – O'zbekiston-Panama qo'shma korxonasi. Ta'sischisi: O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi.

Korxona respublikadagi o'simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy vositalarni tayyorlovchi yagona korxonadir. Korxona faoliyati O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining kimyoviy vositalarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan. 1996 yil dekabr oyida Fransiyaning «Speyshim» firmasi bilan hamkorlikda yillik quvvati 10 ming tonna bo'lgan fozalon ishlab chiqarish liniyasi ishga tushirildi, mevali ekinlardagi o'simlik biti, kana, Kolorado ko'ng'izi va boshqa zararkunandalarni yo'qotishda qo'llaniladigan fozalon insekombinatoakaridsidini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Chetdan olib kelingan xom ashyolardan 30 turdagi o'simliklarni himoya qiluvchi kimyo vositalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Korxona ko'p yillardan buyon Shveysariyaning «Singenta», «Dalston», Germaniyaning «Lurgi», Yaponiyaning «Sumitomo», Xitoyning Xunan eksport-import korporatsiyasi, «Delyan», Buyuk Britaniyaning «Dau Agrosains» firma va kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi.

II-BOB. NAVOIY VILOYATI SANOATIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI.

2.1. Navoiy viloyati sanoatiga chet el investitsiyalarining kiritilishi.

Chet el investitsiyalari jalb etilishini yanada ragʻbatlantirish, chet el investitsiyalari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va Oʻzbekistonning ulkan iqtisodiy va investitsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yil 2 dekabrda qarori boʻyicha Navoiy viloyati hududida «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi tashkil etildi¹.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) xorijiy investorlarga biznes yuritish uchun keng imkoniyatlarni taklif etadi va avval boshdan biznesga katta raqobat afzalliklarini beradi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) joylashgan hudud – Oʻzbekistonning sanoat shaharlaridan biri Navoiy shahri yonida hamda Oʻzbekistonning yirik shaharlari va sanoat markazlari hisoblangan Buxoro va Samarqanddan 100–175 km yaqinlikda umumiy 564 ga maydonni tashkil etadi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) hududida soliq, valyuta va bojxona rejimlari, kirish, turish va chiqishning soddalashtirilgan tartibi, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari-norezidentlari bilan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat olish, soliqlar, bojxona va boshqa majburiy toʻlovlar boʻyicha keng imtiyozlar taqdim etishni oʻz ichiga olgan maxsus huquqiy rejim amal qiladi. «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)ning amal qilish muddati 30 yil boʻlib, mazkur muddat yakunlangandan soʻng amal qilishni uzaytirish ehtimoli mavjud.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) hududidagi yer uchastkalari korxonalarga investitsion faoliyat davri uchun bepul asosda yoki minimal ijara haqiga ijaraga beriladi, bu esa ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun investorlar tomonidan yerni sotib olish va, taalluqli ravishda, ishlab chiqarishni tashkil qilishda qoʻshimcha mablagʻlar sarflash zaruratini istisno etadi.

¹ Qarang: «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xalq soʻzi, 2008 yil, 3 dekabr.

Investorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)dagi korxonalar yuqori darajali infratuzilma bilan ta'minlanadi. «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)dagi korxonalar transport, muhandislik kommunikatsiyalari, mehnat xavfsizligi tizimlari va ishchi-xodimlarning yashash va mehnat faoliyatlari uchun har tomonlama qulayshart-sharoitlarning taalluqli infratuzilmalari bilan ta'minlanadi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)dagi ishlab chiqarish faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

Zamonaviy yuqori ishlab chiqaruvchanlikka ega xorijiy asbob-uskunalar va texnikalar, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini tatbiq etish hisobiga yuqori texnologik, dunyo bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning keng doirali turlarini ishlab chiqarish «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) xo'jalik yurituvchi sub'ektlari faoliyatining asosiy yo'nalishi qilib belgilangan.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) hududida sanoatning barcha tarmoqlarida xom ashyodan tortib tayyor mahsulotga qadar to'liq ishlab chiqarish sikliga ega sanoat majmualarini tashkil qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)ni tashkil qilish konsepsiyasidan va tanlangan ustuvorliklardan kelib chiqqan holda, «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)da quyidagi tarmoqlar va yo'nalishlardagi korxonalar joylashtiriladi:

- elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- telekommunikatsiya asbob-uskunalarini ishlab chiqarish;
- mashinasozlik, o'lchagich asbob-uskunalari va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish;
- dori-darmon mahsulotlari va tibbiy jihozlarni ishlab chiqarish;
- oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va qadoqlash;
- plastik va polimer buyumlarni ishlab chiqarish.

Joylashishi va transport infratuzilmasi. Navoiy viloyatining multimodal transport-logistik uzeli afzalliklaridan eng yuqori darajada samaradorlik bilan foydalanish uchun «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) xalqaro aeroport, Ye-40 avtomagistrali va xalqaro, ahamiyatga ega temir-yoʻllarning bevosita yaqinida joylashtirilgan.

Oʻzbekistonda qoʻnib oʻtuvchi havo yoʻllaridan foydalanish yuklarni transport orqali joʻnatish uchun vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada tejash imkonini beradi. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyodan Yevropagacha boʻlgan masofa «Navoiy» orqali, Dubay orqali borishga nisbatan, ming km.ga qisqaroq. Bundan tashqari, havo yoʻli orqali uchib oʻtish amalga oshirilgandagi vaqt tejalishi 1,5 soatni, har bir avialayner uchun yonilgʻi tejalishi esa – 15 tonnani tashkil etadi.

Mazkur shart-sharoitlar Navoiy aeroporti bazasida xalqaro transport yoʻlini tashkil qilish loyihasi doirasida Oʻzbekiston va «Korean Eyr»ning uzoq muddatli shartnomasiga asos boʻlib xizmat qildi. Erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)ning bevosita yaqinida Yevropani Xitoy bilan eng qisqa yoʻl bilan bogʻlovchi «Ye-40» avtomobil magistrali, Markaziy Osiyo, MDH, Janubi-Sharqiy Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq va Fors koʻrfazi mamlakatlari bozoriga olib chiqadigan temiryoʻl yotqizilgan.

Yuklarni avtomobil vositasida Xitoy-Yevropa yoʻnalishida Oʻzbekiston orqali tashish Xitoy-Rossiyachegarasi orqali marshrutga nisbatan taxminan 1000 km.ga qisqa. Bu transport xarajatlarini bitta avtomobildan 800 dollarga qisqartiradi. Konteynerli poyezd Toshkentdan Bandar-Abbas portigacha boʻlgan yoʻlni 7 sutkada, Toshkentdan Tehron orqali Istambulgacha – 10 kunda bosib oʻtadi. Bu Oʻzbekistondan chetlab amalga oshirilgan yuk tashishlardan 2 marta tezroqdir.

Navoiy orqali hududning janubda Eron va Turkiya portlariga, gʻarb va shimolda – Qora va Boltiq dengizlariga chiquvchi barcha asosiy temiryoʻl trassalari oʻtgan. Xitoydan Yevropaga eng qisqa temiryoʻl marshruti ham Navoiy orqali oʻtadi. «Gʻuzor-Boysun-Qumqoʻrgʻon» temir yoʻllari foydalanishga

topshirilgandan so'ng, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonga eng qisqa tranzit aloqa paydo bo'ldi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) maydonchalarini tanlashda elektr, suv va gaz bilan ishonchli ta'minlash uchun infratuzilma mavjudligi, ish kuchi manbalari bilan bog'liq aholi yashash punktlariga yaqinlik, shuningdek «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) rezidentlariga har jihatdan qulay mehnat va dam olish shart-sharoitlarini yaratish uchun zarur bo'lgan maqbul ekotizim kabi omillar ham e'tiborga olingan.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)ning boshqaruv tuzilmasi.
O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2009 yil 27 yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Ma'muriy kengash «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi organ hisoblanadi. Ma'muriy kengash «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)ning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash masalalari bo'yicha davlat organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlovchi davlat idoralari vakillarining maslahat organi hisoblanadi.

Ma'muriy kengash quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)da joylashtirish uchun investorlar tanlovini o'tkazadi, investitsiyalash to'g'risidagi shartnomalarning asosiy shartlarini belgilaydi;
- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ)ning faoliyat yuritishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha davlat boshqaruv organlari va davlat hokimiyatining mahalliy organlari faoliyatining muvofiqlashuvini amalga oshiradi;
- yer uchastkalarining, shuningdek davlat mulkidagi bino va inshootlarning ijara qiymatini belgilaydi;
- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) ishlab chiqarish infratuzilmalarining markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan qurilish loyihalarini tasdiqlaydi;
- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) Direksiyasi direktorini tayinlaydi, «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) Direksiyasi faoliyati ustidan rahbarlik va nazoratni, shuningdek «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi

(EISZ)ning mustaqil byudjeti va Taraqqiyot fondi mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- qabul qilingan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, investitsiyalash to'g'risidagi shartnomani muddatdan oldin bekor qilish to'g'risida qaror qabul qiladi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) faoliyatining tezkor boshqaruvchisi yuridik shaxs maqomiga ega Davlat qo'shma korxonasi shaklida tashkil etiladigan Direksiya tomonidan amalga oshiriladi. Direksiya ustavi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) Direksiyasi:

- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) ishtirokchilarini ro'yxatdan o'tkazadi va ular reestrini yuritadi, ularga taalluqli guvohnomalar beradi;

- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) ishtirokchilari bo'lmagan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobga olinishini amalga oshiradi;

- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) ishtirokchilariga va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) hududidan yer uchastkalarini boshqa sub'ektlarga ijaraga berish, o'z huquq va majburiyatlarini ijara shartnomasi bo'yicha boshqa shaxsga o'tkazish, ijara huquqini garovga berish, ularni ustav kapitaliga hissa sifatida kiritish huquqlarisiz ijaraga beradi. «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) hududidagi yer uchastkalarini sotish va o'zgacha tarzda boshqalar ixtiyoriga o'tkazish taqiqlanadi;

- davlat mulkida bo'lgan «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) hududida joylashgan ko'chmas mulk ob'ektlarini unga berilgan vakolatlar doirasida boshqaradi;

- investorlar tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- Ma'muriy kengash qaroriga asosan, zimmaga olingan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, investitsiyalash to'g'risidagi shartnomani bekor qilish to'g'risida sudga da'vo arizalari bilan murojaat qiladi;

- «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasi (EISZ) faoliyatini tezkor boshqarish bo'yicha boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Darhaqiqat, bugun respublikada modernizatsiya qilingan va texnologik jihatdan qayta jihozlangan zavod va fabrikalarda, yangidan bunyod etilgan zamonaviy qo'shma korxonalarda xaridorgir, raqobatbardosh, ya'ni eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani aslida investitsiyalar sharofati ekanligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda Prezidentimizning 2008 yil 2 dekabrda qabul qilingan «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega¹. Sababi ushbu hujjatda jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatini sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzulmasini rivojlantirish maqsadlari ko'zda tutilgan.

¹ «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Xalq so'zi, 2008 yil, 3 dekabr.

2.2. Navoiy viloyati sanoat korxonalari qurilishida chet ellik hamkorlar bilan amalga oshirilgan ishlar.

So‘nggi yillarda respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish yangi texnologiyalarni jalb etish orqali mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Navoiy shahridagi “Elmurod O‘lmas” ishlab chiqarish savdo firmasi mablag‘i hisobidan barpo etilgan, rossiya texnologiyasi asosida sutkasiga 1 tonnaga yaqin neytron tolalarni qayta ishlash quvvatiga ega bu korxona kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Bundan tashqari, kalava iplardan adyol to‘qishni ham yo‘lga qo‘yildi. Bank krediti yordamida joriy yilning oxiriga qadar Germaniya texnologiyasi asosida gilam to‘qish sexini tashkil etish niyatimiz bor. Korxonamizda hozirda 10 nafardan ziyod ish o‘rni yaratilgan bo‘lsa, yangi sex tashkil bo‘lishi natijasida yana 60 ta yangi ish o‘rni ochiladi¹.

Darhaqiqat, bugungi kun tarbirkorlariga mehnat qilishlari uchun barcha sharoitlar yetarli. “Mustahkam oila yili” davlat dasturida ham shaharda kichik korxonalar, mikrofirmalar, oilaviy biznesni rivojlantirish asosiy masala sifatida qaralib, shijoati baland ishbilarmonlarga keng yo‘l ochib berilmoqda. Ana shu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan “Elmurod O‘lmas” ishlab chiqarish savdo firmasi ham kelajakda yangidan-yangi loyihalarni amaliyotda qo‘llab, Vatanimiz taraqqiyoti va iqtisodiyotining yanada takomillashuviga munosib hissa qo‘shmoqdalar.

Yurt obodligi, aholi farovonligini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlikni, maishiy xizmat hamda servis sohalarini rivojlantirishga yuksak e‘tibor qaratilishi o‘z samarasini bermoqda. Bu borada tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan turli kreditlar muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston – Germaniya “Savdogar” ochiq aksiyadorlik tijorat banki Navoiy viloyati filiali tomonidan 2012 – Mustahkam oila yili munosabati bilan, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda aholiga maishiy va servis xizmati

¹ Navoiy press. ijtimoiy-siyosiy gazeta, 2012 yil, 2 may.

ko'rsatishni yaxshilash maqsadida ajratayotgan kreditlardan unumli foydalanayotgan tadbirkorlar yaxshi natijalarga erishayotir.

Yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ko'plab me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilayotgani soha rivojida muhim o'rin tutmoqda. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan qonunlar xususiy sektor vakillariga ulkan imkoniyatlar eshiklarini ochayotir.

Navoiy shahridagi "Karmana non savdo" xususiy korxonasi tashkil etilganiga o'n yildan oshdi. Uch yildirki, O'zbekiston – Germaniya "Savdogar" ochiq aksiyadorlik tijorat banki Navoiy viloyati filiali mijozi sifatada faoliyat yuritadi. "Karmana non savdo" oilaviy korxonaga aylantirilib, unga Shokirjon Ismoilov rahbarlik qiladi. Bu yerda shuningdek, uning ota-onalari Zokirjon Ismoilov hamda Xadicha Haydarova, ukasi Lazizjon Ismoilovlar ham mehnat qiladi.

Savdo do'koni asosan oziq-ovqat va xo'jalik mollari savdosiga mo'ljallangan. Ushbu yilda bank yordami bilan 40 million so'mlik kredit olib, qo'shimcha maishiy xizmat, servis nuqtalari va ishlab chiqarish korxonasi barpo etmoqdaki, natijada, 16 ta muqim ish o'rni ochiladi¹.

Navoiy shahrida yana bir yangi O'zbekiston-Koreya qo'shma korxonasi ish boshladi. Eng quvonarlisi, bu korxonada 300 nafarga yaqin mahalliy yoshlar ishlaydigan bo'ldi. U yiliga 12 ming tonna texnik kremniy ishlab chiqarish quvvatiga ega. "Uz-Kor Silicon" korxonasining ochilish tantanalarida "O'z kimyosanoat" kompaniyasi raisi Hamidullo Shermatov, O'z FA akademigi Muhsin Ashurov, Navoiy shahar hokimi Bahodir Jo'rayev hamda kompaniya rahbari Kim Nyung Jimlar so'zga chiqdilar. Ular kelajagi porloq bu korxonani bunyod qilishda ishtirok etgan quruvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirishdi.

"Navoiyazot" OAJ raisi Nusrat Soliyev zavodning ramziy kalitini topshirib, korxona bunyodkorlariga to'n yopdi. Ramziy tasma tantanali ravishda qirqilib korxona o'z faoliyatini boshladi.

¹ Navoiy press. ijtimoiy-siyosiy gazeta, 2012 yil, 4 aprel.

Koreyaning “Nyu pland” kompaniyasi bilan hamkorlikda korxonaning birinchi quvvati ishga tushdi. Yiliga endilikda bu zavodda 12 ming tonna texnik kremniy ishlab chiqarib, eksport qilinadi. Bu yo‘nalishdagi korxona respublikamizda yo‘q. Yana bu korxonada poli va mono kristallar olinib, yoqilg‘i ishlab chiqarishda, samolyotsozlik va avtomobilsozlikda ham ishlatiladi. Tadbir ishtirokchilari mustaqillik ayyomi arafasida yana bir sanoat inshooti barpo etilganligini ko‘rib quvondilar.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 fevraldagi “2010-2012 yillarda Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini oshirish, shuningdek, istiqbolsiz korxonalarni tarkibiy o‘zgartirish, moliyaviy sog‘lomlashtirish yoki tugatish bo‘yicha dasturi”ning amaldagi ijrosi sifatida yaqinda Karmana tumanida pillani qayta ishlashga ixtisoslashgan “RICHARD BEST SILK” xususiy korxonasi tomonidan ipak tolalari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi¹.

Buning uchun 250 ming AQSh dollariga Xitoydan pillani qayta ishlovchi eng zamonaviy ikkita liniyani olib kelib o‘rnatildi. Ushbu texnologiyaning afzalligi shundaki, uskunalar to‘liq avtomatlashtirilgan hamda har liniyada 20 tadan qozon borligi yuqori sifatli tola olish imkonini berayapti. Buning uchun Navoiy issiqlik elektr stansiyasi issiqlik energiyasidan samarali foydalanayapmiz.

Yiliga 200 tonna pillani qayta ishlash quvvatiga ega korxonada 75 nafar mahalliy xotin-qizlar doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. Xitoyning “Jung Jang” kompaniyasiga qarashli texnik uskunalaridan foydalanishda mahalliy yoshlarga Namangandagi “Helil silk” qo‘shma korxonasi mutaxassislari ko‘maklashmoqda. Har bir liniya yiliga 30 tonnadan ortiq sifatli ipak tolasini ishlab chiqaradi. Demak, korxonada bir yilda 60 tonnadan ortiq ipak tolasini eksportga chiqariladi.

Sifatli tolaga birinchi bo‘lib Xitoy davlati xaridor bo‘lmoqda. Korxona mahsulotini eksport qilish borasida shartnoma imzolash arafasida. Shuningdek, kelgusida ipak tolasidan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida biznes-loyihalar ishlab chiqilmoqda.

¹ Do‘stlik bayrog‘i. 2012 yil, 17 noyabr.

Umuman, yuqorida keltirilgan manzilli dastur doirasida joriy yilda umumiy qiymati 19,9 milliard soʻmlik hamda 10,5 million AQSh dollariga teng 124 ta loyihaning ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Shundan yilning birinchi yarmida 44 ta ishlab chiqarish loyihasi ishga tushdi¹.

12 turdagi ip kalava ishlab chiqarayotgan “Baxttekstil”korxonasi Germaniya, Shveysariya, Italiya davlatlarining zamonaviy texnologiyalari bilan jihozlangan. Mahsulotlarni asosan Rossiya va boshqa davlatlarga eksportga chiqaradi. Xomashyoni esa respublikamizning turli hududlaridan xarid qiladi.

Hozirda asosan yoshlar va xotin-qizlardan iborat 520 nafar ishchi-xizmatchilar faoliyat koʻrsatayotgan korxonada ish uch smenada tashkil etilgan. Malakali mutaxassislar oʻgitini olgan yoshlar professional kadrlarga aylanib ulgurishgan².

Biz 2011 yilda 2891 tonna ip kalava ishlab chiqargan holda, shundan 7253,8 ming AQSh dollari qiymatidagi mahsulotni chetga eksport qildik. Oʻzimizning ichki bozorga 2337,7 ming AQSh dollarilik ip kalava yetkazib berildi. Mamlakatimiz Prezidentining 2012 yil 26 martda qabul qilingan “Eksport qiluvchi korxonalarni ragʻbatlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori yurtimizda tadbirkorlikka va ishbilarmonlarga yaratilgan yuksak imkoniyatdir³.

Shundan kelib chiqib, 2012 yilda mahsulot ishlab chiqarish miqdorini 5000 tonnaga yetkazishni maqsad qilgandi. Bugungi kungacha 1910 tonna ip kalava ishlab chiqargan boʻlsak, shundan 3245,8 ming AQSh dollarlik mahsulot eksport qilinib, 1042,8 ming AQSh dollarilik ip kalava ichki bozorda sotildi.

Ishchilarining 90 foizi yoshlardan iborat korxonaning kelajakdagi rejalari bisyor. Endilikda faqatgina ip kalava ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmasdan, chetdan zamonaviy dastgohlar xarid qilib, tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish

¹ Doʻstlik bayrogʻi. 2012 yil, 17 noyabr.

² Doʻstlik bayrogʻi. 2012 yil, 18 avgust.

³ “Eksport qiluvchi korxonalarni ragʻbatlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2012 y., 3-son.

loyihasini amalga oshirish arafasida turibdi. Bunda albatta yosh mutaxassislarning tajribasiga bildirilgan ishonch asosiy o‘rinni egallamoqda.

Ishlab chiqarish korxonasi bugun yosh malakali mutaxassislar safini kengaytirmoqda. Jumladan, 2012 yilda 24 nafar kollej bitiruvchilari bilan uch tomonlama shartnoma imzolandi. Bu, albatta korxonada ishlab chiqarish sur‘atining tezlashishi va qo‘lida hunari bor tayyor kadrlarning ish bilan ta‘minlanishi kafolotidir.

Iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mamlakatimizning barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishida muhim omil bo‘lmoqda. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlari tom ma’noda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Prezidentimizning 2012 yil iyul oyida e‘lon qilingan “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda “Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalar bunga yaqqol misol bo‘ladi. Joriy yilda yangi tashkil etilgan kichik biznes sub‘ektlarida soliq yukining tushirilishi, bank krediti yordamidan foydalanish imkoniyatlari o‘tgan yilgiga nisbatan yuqori ekanligi ishbilarmonlarga ancha qulayliklar yaratdi.

Keng imkoniyatlardan unumli foydalanib “O‘zbeklizing” kompaniyasi yordamida 182 ming AQSh dollari qiymatidagi Xitoy texnologiyasi asosida yaqinda ish faoliyatini boshlagan “Navoiy - karton qog‘oz” mas’uliyati cheklangan jamiyati chiqindi qog‘ozdan qadoqlash qog‘ozi ishlab chiqarmoqda.

III-BOB. KEYINGI YILLARDA NAVOIY VILOYATI SANOATINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONLARI VA NATIJALARI.

3.1. Navoiy viloyati sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishining yilma-yil ko'payib borishi.

Istiqlol yillarida bozor munosabatlarining shakllanishi hamda iqtisodiyotning erkin rivojlanishi tufayli barcha jabhalarda yangilanishlar ro'y berdi. Ayniqsa, yirik sanoat tarmoqlarining jadal sur'atlarda rivojlanishi sohadagi yutuqlarga qanot bo'lmoqda.

2010 yil davomida sanoat tarmog'ida 10 dan ortiq yangi turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni ishga tushirilishi yo'lga qo'yildi.

Jumladan, yiliga 300 ming dona shifer ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Munjol shifer" qo'shma korxonasi foydalanishga topshirilib, 3716,0 mln so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va 96 ta yangi ish o'rinlari yaratildi¹.

Shuningdek, yiliga 3,0 ming m.kv gilam mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Navoiy Korpet" korxonasi, «Omad Biznes Zarafshon» MChJ tomonidan yiliga 500 ming dona olovga chidamli g'isht ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilganligi, shu bilan birga "Temur Malik" MChJ negizida pishiq g'isht, "Bagil Medikal" sho'ba korxonasida shprints, «Tomdi Fayz» sho'ba korxonasi negizida ohak va «Oq oltin kapital servis» MChJ negizida cherepitsa va ohak mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari nihoyasiga yetkazildi va bunday misollarni yana ko'plab keltirishimiz mumkin.

"Qizilqumsement" ochiq aksiyadorlik jamiyatida xalq iste'moli mollari bilan birgalikda hukumatimizning mahalliyashtirish Dasturi asosida ichki ehtiyojlar uchun import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ham ishlab chiqarilmoqda.

Prezidentimizning 2011 yil 29 iyuldagi "2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish dasturi to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Navoiy shahrida 7 ta korxonada

¹ Do'stlik bayrog'i. 2012 yil, 24 noyabr.

48 ta loyiha bo'yicha mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, shundan 3 ta loyiha mazkur zavodda amalga oshirilmoqda. Bular: ayni paytda o'tga chidamli shamot g'ishtlari, tamponajli portlandsement va diabaz piroksenit qazib olish loyihalaridir. Bu borada ko'p millatli ahil jamoaning fidokorona mehnati tahsinga sazovor¹.

Kechayu kunduz ishlayotgan har bir sex bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Birini ikkinchisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tog'-kon sexi karerlardan xomashyo yetkazib bersa, xomashyo bo'linmasi mahsulotni tayyorlab klinker ishlab chiqarish sexiga jo'natadi. Klinker maydalash sexida tayyor mahsulotga, ya'ni sementga aylantiriladi. Bu katta jarayonni bosib o'tish uchun, albatta, yuqori quvvatli texnikalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda bu jarayonning uzluksizligi texnik uskunalarning vaqtida sifatli ta'mirlanishi va yangilab borish bilan daxldor kechadi. Ana shunday vaziyatlarda zavodning ta'mirlash korxonasi ishchi-xodimlarining alohida o'rni bor.

Hozirgi kunda ta'mirlash korxonasida uchta bo'lim va futerovka sexi faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir bo'limning faoliyati ma'lum yo'nalishlar asosida tashkil etilgan. Birinchi bo'lim aspiratsion uskunalar, ya'ni chang so'rgich va elektro-filtrlarni ta'mirlaydi. Ikkinchi bo'lim pech va pech sovutgichlarni, shu asno oddiydan murakkabgacha bo'lgan ashyolarni ta'mirlab kelayapti.

Korxonada 2011 yilning may oyidan boshlab shifer ishlab chiqaruvchi yangi sex ishga tushirildi. U yerda o'tgan yili 20,5 million dona shartli plita shifer mahsuloti ishlab chiqarildi. Natijada, qo'shimcha ikki milliard so'mga yaqin daromad olishga erishdik. E'tiborli tomoni shundaki, mazkur sex ishga tushishi natijasida oliy o'quv yurtlarini va kasb-hunar kollejlarini tugatgan 143 nafar mahalliy yosh mutaxassislar ish bilan ta'minlandi.

Hozirda korxonani modernizatsiya qilish va mahalliyashtirish dasturi asosida texnik va texnologik jihozlash bo'yicha qiymati 279,5 milliard so'mlik ikkita loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan. Bu esa yiliga bir million tonna sement ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ikkita zamonaviy sement tegirmoni

¹ Do'stlik bayrog'i. 2012 yil, 11 avgust.

oʻrnatilishi demakdir. Loyihalarni amalga oshirish muddati 2011-2014 yillarga moʻljallangan.

Demak, korxonaga jalb etilayotgan zamonaviy texnologiyalar energiya resurslarini tejash imkonini berayotir. Oʻsish surʼatlarini taʼminlamoqda. Yurtdagi bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarida oʻzining munosib hissasini qoʻshayotgan 2700 kishilik korxona jamoasi bundanda yuqori natijalarga koʻz tikishgan. Islohotlar samaradorligidan ular mamnun.

Oʻtgan yillar davomida Navoiy viloyatida jami 77,7 milliard soʻmlik yengil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilib, reja 111,1 foizga bajarildi. “Navoiypaxtasanoat” hududiy aksiyadorlik birlashmasiga qarashli korxonalar tomonidan 57,7 milliard soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi¹.

Hozirgi kunda viloyat boʻyicha 128 ta yengil sanoat korxonasi faoliyat koʻrsatib kelmoqda. Navoiy shahridagi yiliga 7500 tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvatiga ega “Baxt tekstil” Oʻzbekiston-Lextenshteyn-Rossiya qoʻshma korxonasi tomonidan joriy yilning oʻtgan birinchi choragida 856 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, xorijga 503,7 ming AQSh dollarilik mahsulot eksport qilindi. Korxona oʻtgan yillar mobaynida Rossiyaning “Presstij”, “Ivanovskaya manufaktura” va ichki bozorda “Bay teks”, “Tekstilimpeks”, “BFT tekstil” kabi korxona va kompaniyalar bilan hamkorlik qilib kelayapti.

Zarafshon shahridagi “Velan” Oʻzbekiston-Rossiya qoʻshma korxonasi mana bir necha yildirki, bozorda oʻz oʻrniga ega boʻlib kelayotir. Korxona asosan qoʻy, echki va tuya junini qayta ishlab, adyol, nimcha, paypoq kabi tayyor mahsulotlarni xorijga eksport qilib keladi. 2009 yilda korxona tomonidan 400 million soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish va 20 ming AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan.

2009 yilda tashkil topgan “Navbahor tekstil” xorijiy korxonasi oʻz faoliyatini Turkiyaning “Adil Tekstil San & tik.A.S.” shirkatining yuz foiz investitsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Korxona yil yakunigacha 500 ming AQSh dollarlik mahsulotni chetga eksport qilishni rejalashtirgan.

¹ Navoiy press. ijtimoiy-siyosiy gazeta, 2012 yil, 22 may.

2012 yil davomida Navoiy viloyatida yana 10 ta yengil sanoat korxonasini ishga tushirish rejaga kiritilgan. Jumladan, Navoiy shahrida “Navoiy karpet” xususiy firmasi, Karmana tumanida “Karmana gilam invest”, Qiziltepa tumanida “Baxtiyor Dilmur tonggi” va boshqa korxona komlarini keltirish mumkin.

Shuningdek, “Qizilqumsement” OAJ korxonasi tomonidan Koreya Respublikasining “Daynet” kompaniyasi investitsiyalarini jalb etgan holda Xatirchi tumanida yengil sanoati tarmog‘ini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

3.2. Navoiy viloyati sanoat mahsulot sifatining oshib mamlakatdan tashqariga chiqarilishi.

“Qizilqumsement” ochiq aksiyadorlik jamiyati ham yildan yilga taraqqiy etib bormoqda. 2005 yili korxonaga ISO 9001 xalqaro sifat boshqaruvi joriy etildi. Bugun korxonaning ishlab chiqarish quvvati ortdi, barcha sexlarda olib borilgan rekonstruksiya va modernizatsiya ishlari yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rejadan ortig‘i bilan bajarish imkonini yaratmoqda. Natijada mazkur korxona respublikamizdagi sement mahsulotining qariyb teng yarmini ishlab chiqarib, tarmoqda bayroqdor bo‘lishga erishdi. Yuqori markali sement mahsulotlariga dunyoning ko‘plab mamlakatlaridan xaridor topilayotir. Eksport salohiyatining o‘sishi esa, yangi texnika va texnologiyalarni hayotga tatbiq etish uchun sharoit yaratayapti. O‘tgan 2011 yilda korxona tomonidan 3 million 165 ming tonna sement ishlab chiqarilib, reja 101,1 foizga uddalandi. Mahsulot Afg‘oniston, Turkmaniston, Qozog‘iston mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Ushbu raqamning o‘ziyoq korxonada ishning samarali tashkil etilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, korxonaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, asosiy ishlab chiqarish uskunalarini yangilash va ishga tushirish maqsadida 10,5 milliard so‘mlik yangi uskunalar sotib olindi.

Bugun dunyo iqtisodiyotida tabiiy boyliklar qatorida paxta xom ashyosiga bo‘lgan talab ancha yuqori. Shu sabab, jahonning sanoqli davlatlarida yetishtiriladigan paxta bejizga “oq oltin” deya e‘tirof etilmagan. Mamlakatimizda bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, paxta sanoatining rivoji yo‘lida olib borilayotgan tadqiqotlar o‘zining ulkan samarasini berayotir. Shu boisdan O‘zbekiston sanoatning bu tarmog‘ida dunyo hamjamiyatida munosib o‘ringa ega.

“Navoiypaxtasanoat” hududiy aksiyadorlik birlashmasi mazkur soha rivojida samarali mehnat qilayotgan tashkilotlardan biridir. Chigitni yerga qadashdan tortib, hosilni yig‘ib olgunga qadar bo‘lgan jarayonda birlashmaning tashabbusi ko‘rinib turadi.

Hududiy aksiyadorlik birlashmasi tizimidagi paxta tozalash korxonalarining asosiy faoliyat turi viloyatimiz fermer xo‘jaliklari tomonidan

yetishtirilgan paxta hosilini sifatli qabul qilib, saqlash, paxta xom ashyosini qayta ishlash, undan olingan yarim tayyor mahsulotlarni “Navoiy tola” mintaqaviy terminaliga va yog‘- moy korxonalariga yetkazib berish texnologik jarayonlaridan iborat.

Viloyat hududidagi uchta paxta tozalash korxonalari yetishtirilgan paxta xom ashyosini qayta ishlab, mahsulotni eksportga tayyorlab beradi. Bugun hududda yetishtirilgan xom ashyoning asosiy qismi ichki bozorda o‘z xaridorlariga ega bo‘lmoqda. Bu albatta, mahalliy mahsulotning sifati yuqoriligi va undan import hamda eksport o‘rinini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish imkoniyatining kengligidan dalolatdir.

Birlashma tomonidan tizimda servis sohasini rivojlantirish uchun “Zarafshonpaxtaservis” mas’uliyati cheklangan jamiyat tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda paxta tozalash korxonalarining uzluksiz ishlashini ta’minlash va mavjud texnika hamda dastgohlarni ta’mirlash ishlari olib boriladi. Viloyatdagi fermer xo‘jaliklari uchun sifatli urug‘lik chigit tayyorlab berish maqsadida maxsus sex tashkil etilgan. Shuningdek, g‘o‘zaning turli kasalliklarga chalinishining oldini olish borasida biolaboratoriya fabrikasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mavsumiy tarzda fermer xo‘jaliklariga zarur biomahsulotlar yetkazib beriladi.

Shu qatorda birlashmaga qarashli “Paxtatrans” mas’uliyati cheklangan jamiyatida xom ashyoni paxta tozalash korxonalariga yetkazib berish uchun texnikalar xizmat ko‘rsatib keladi.

“Texnika ta’mirlash va ta’minot” MChJ esa birlashma tizimidagi paxta tozalash korxonalarida turli ta’mirlash ishlarini olib boradi hamda moddiy texnik resurslar bilan ta’minlab turadi.

Eng e’tiborli jihatlardan biri bu birlashma tarkibida “Zarafshon ip yigiruv” fabrikasining faoliyatiga keng yo‘l ochib berilganidir. Ip kalava shu yerning o‘zida tayyorlanib shartnoma asosida to‘qimachilik korxonalariga yetkazib berilayotganligi birlashmaning puxta rejalar asosida ish olib borayotganligidan darak. Bugun fabrikada 59 nafar yosh yigit-qizlar mehnat qilishmoqda. Navbahor, Xatirchi hamda Qiziltepa tumanidagi yengilsanoatga ixtisoslashgan kasb-hunar

kollejlari bilan hamkorlikda uch tomonlama shartnomalar imzolanib bitiruvchilar ish bilan ta'minlandi.

Shuningdek, tizimdagi "Noto'qima" mas'uliyati cheklangan jamiyati paxta tozalash korxonalari uchun tola va ikkilamchi mahsulotlarni o'rash uchun maxsus matolar ishlab chiqaradi.

Tinimsiz izlanishlar va olib borilgan izchil islohotlar natijasida "Navoiypaxtasanoat" HAB tomonidan 2011 yilda 98645 tonna xom ashyo qayta ishlanib, 34102 tonna tola, 51636 tonna chigit, 2990 tonna momiq mahsulotlar ishlab chiqarildi. Birlashma belgilangan rejani 33,8 foiz o'rniga 34,6 foiz, ya'ni 0,8 foizga ortig'i bilan bajardi.

Birlashma tizimidagi korxonalarda 2010 yilda 83424861,0 ming so'mlik tovar mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 87663315,0 ming so'mni tashkil etdi. Ishlab chiqarishdagi yillik o'sish sur'atlari 105,1 foizga yetgan. E'tiborlisi, o'tgan mavsumda chet davlatlarga tola eksporti hajmi 99,4 foizni tashkil etgan, qolgan 0,6 foizi ichki bozorda sotilgan. O'tgan yilda birlashma 10026982,0 ming so'mlik sof daromad olishga erishganligi astoydil qilingan mehnatning samarasidir.

Paxta tozalash korxonalarida modernizatsiya va rekonstruktsiya ishlarining o'z vaqtida amalga oshirilganligi esa bugunga kelib jahon standartlariga to'la mos keladigan sifatli tola mahsulotlariga talabning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Eng avvalo, hosilning sifati uning urug'iga bog'liq. Shu boisdan viloyat Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi, G'o'za urug'chilik boshqarmasi bilan hamkorlikda viloyatimiz mintaqasiga mos, serhosil, tez pishar, turli kasalliklarga chidamli Bux-102, Bux-108, Namangan-77, Sulton navlari sinalib ekilmoqda.

Hududiy aksiyadorlik birlashmasi tizimidagi mavjud paxtatozalash korxonalarida parrandachilik fabrikalari tashkil etilib, har birida 10 ming boshdan parranda parvarishlanmoqda. Jami, 30 ming bosh parrandadan iborat tovuqchilik fermalari korxonalarga qo'shimcha daromad manbai sifatida xizmat qilmoqda. Shuningdek, parrandachilikni rivojlantirish maqsadida Nurota tumanida 30 ming boshga mo'ljallangan parrandachilik fabrikasi qurilib ishga tushirildi. Bundan

tashqari, birlashma bo'yicha mahalliy hokimiyatlar tomonidan ajratilgan 18 gektar yer maydoni hududida yangi bog'lar tashkil qilindi. Shundan, Karmana tumani hududida 3 gektarlik intensiv bog' barpo etildi. Yosh nihollar oralariga esa sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Yetishtirilgan meva va poliz mahsulotlarini saqlash uchun birlashmaga qarashli paxta tozalash korxonalarida 3 dona har biri 150 tonnaga mo'ljallangan sovutkichlar qurib ishga tushirildi.

“Navoiypaxtasanoat” HAB faqat paxta sanoati bilan emas, balki qishloq xo'jaligi sohasida o'zining samarali izlanishlarini amalga oshirib kelayapti. Bu bilan korxona o'ziga qo'shimcha daromad manbaini yaratib, taraqqiyotining bardavomligini ta'minlamoqda.

Mamlakatimiz kimyo sanoati korxonalarida ishlab chiqarilayotgan jami mahsulotlarning 30 foizdan ortig'i “Navoiyazot” ochiq aksiyadorlik jamiyati to'g'ri keladi. Bugungi kunda korxonada 100 xildan ortiq kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilib, ulardan qishloq xo'jaligi, rangli metallar qazib olish sanoati, yengil sanoat, mebelsozlik, elektronika, farmatsevtika va aviatsiya sohalarida keng foydalanilmoqda. Doimiy sa'y-harakatlar va keng ko'lamli amaliy ishlar natijasida yakunlangan 2011 yilda 421, 4 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va bu boradagi o'sish sur'ati 104,2 foizni tashkil etdi.

Davlatimiz rahbarining 2010 yil 15 dekabrda “2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida korxonada 11 ta investitsion loyihalarni amalga oshirish belgilangan. 2011 yilda 27,8 milliard so'mlik sarmoyaviy qo'yilmalar o'zlashtirildi. Korxona tomonidan amalga oshirilgan yirik loyihalardan biri yangi mahsulot azot-fosforli murakkab o'g'itlar ishlab chiqarish bo'linmasi hisoblanadi.

Agrar tarmoqda ekinlarning unuvchanligi, kasalliklarga bardoshlilik va hosildorligini oshirishda azot-fosforli murakkab o'g'itlar nihoyada zarur, hayotbaxsh vosita ekanligi allaqachon o'z isbotini topgan. Oldingi davrda ekinlarga quvvat ulashuvchi ushbu kimyoviy ozuqa tarkibiy jihatdan alohida holda ishlab chiqarilgan bo'lsa, innovatsion yechimlar, ilmiy izlanishlar, tahliliy

o'rganishlar natijasida 2010 yildan boshlab, sanoat miqyosida yaxlit holda tayyorlashga muvaffaq bo'lindi. Bu esa tejamkorlik va tannarxning pasayishini ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi uchun 2011 yilning o'zida 70 ming tonnadan ziyod azot-fosforli o'g'itlar yetkazib berildi.

Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichi o'tgan yilga nisbatan 21,8 foizni tashkil etdi. Joriy yilda tarkibida azot, fosfor va kaliy elementlari bo'lgan murakkab o'g'it ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchimiz. Hozirgacha bu boradagi sinov ishlari olib borilib, laboratoriya ishlari nihoyasiga yetkazildi.

Aksiyadorlik jamiyatida mahalliy lashtirish dasturida belgilangan vazifalarni uddalashga ham jiddiy e'tibor qaratilyapti. O'tgan davrda to'qqiz turdagi akril emulsiyasi, texnik atseton, nitrat kaliy, natriy sianidi, "A" markali metanol rektifikati, kimyoviy tozalangan natriy xlorid tuzlari va kaustik soda ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yildi. Yakunlangan yilda rejadagi 90,9 milliard so'mlik o'rniga 99,3 milliard so'mlik shunday mahsulotlar tayyorlandi. Shu tufayli katta miqdordagi valyuta mablag'larini tejash imkoniyati yaratildi.

Joriy yilda korxonada texnik kremniy ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yana bir zamonaviy quvvat o'z faoliyatini boshlaydi. Janubiy Koreyaning "Neoplant" kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ushbu loyiha qiymati 20,4 million AQSh dollariga teng bo'lib, ayni paytda bo'lajak ob'ektda qurilish-montaj ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi korxonaning yillik quvvati 12 ming tonna texnik kremniy va 6 ming tonna mikrokremnezyom ishlab chiqarish uchun yetarli, - deydi aksiyadorlik jamiyati bosh muhandisi o'rinbosari Farhod Bahranov. – Bu mahsulotlar to'lig'icha eksportga yo'naltiriladi va uning hajmi yiliga 32 million AQSh dollariga tengdir. Loyiha ishga tushirilishi bilan korxonada yangidan 347 ta ishchi o'rni vujudga keltiriladi va asosan mahalliy yosh kadrlar ishlashi ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, texnik kremniydan po'latning karroziyaga chidamliligini va mustahkamligini oshirishda qo'shimcha element sifatida foydalaniladi. Bunday metall asosan aviatsiya va kosmik sanoatda juda zarur material hisoblanadi. Kimyo sanoatida ham texnik kremniy yemirilishdan saqlovchi va shovqindan himoya

qiluvchi mahsulotlar tayyorlashda ishlatiladi. Uchta yarim o'tkazgichning eng asosiysi hisoblangan bu mahsulot shuningdek, quyosh fotoelektr stansiyalarining plastinkalarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

Respublikamizda texnik kremniy tayyorlashda zarur bo'ladigan xomashyoning boy zahirasi mavjud bo'lib, bu esa sanoatni yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda. Galdagi vazifalar, taraqqiyot rejalari esa yanada zalvorli.

X U L O S A

Navoiy viloyati Respublikamizdagi sanoat eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy o'sishida hamda ko'p qirrali, sog'lom iqtisodiy sistemani tashkil etishda, shunigdek yangi davlat mustahkamlanishini yanada mustahkamlashda, uni har tomonlama moddiy va ma'naviy yuksalishini ta'minlashda Navoiy viloyatining ham munosib hissasi bor. Viloyatda 1960 - 80 yillarda paydo bo'lgan yuqori darajadagi bunyodkorlik va ishlab chiqarish sur'ati so'ndirilmadi, aksincha istiqlol sharofati bilan jahon andozalariga mos yangi korxonlar, texnologiyalar shundog'am baqquvat iqtisodiy-ijtimoiy tizimga qo'shildi.

Navoiy - sanoat sohasidagi o'lgan salohiyatga eta viloyat. Bu yerda 20 dan ziyod yirik sanoat korxonalari faoliyat yuritayotganligi shundan dalolat beradi.

Prezidentimiz Navoiy viloyati xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqida qayd etganidek, bugungi kunda mana shunday korxonalarda ishlab chiqilayotgan mahsulotlar jahonning 54 davlatiga eksport qilinayotganligi o'zi ham ko'p narsani anglatadi.

Navoiy viloyati, nafaqat respublikamizda, balki, jahondagi ko'plab mamlakatlarda keng tanilgan, bugungi kunda ham samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgan mana shunday qudratli va ko'p tarmoqli zamonaviy ishlab chiqarish kompleksi yurtimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining yorqin namoyoni sifatida barchani hayratda qoldirmoqda.

Darhaqiqat, bugun respublikada modernizatsiya qilingan va texnologik jihatdan qayta jihozlangan zavod va fabrikalarda, yangidan bunyod etilgan zamonaviy qo'shma korxonalarda xaridorgir, raqobatbardosh, ya'ni eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani aslida investitsiyalar sharofati ekanligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda Prezidentimizning 2008-yil 2 dekabrda qabul qilingan «Navoiy viloyatida erkin iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida» gi Farmoni muhim ahamiyatga ega. Sababi ushbu hujjatda jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni

ta'minlaydigan zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek Navoiy viloyatini sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzulmasini rivojlantirish maqsadlari ko'zda tutilgan.

Navoiy viloyati katta iqtisodiy potensialga, bitmas tuganmas yer osti va yer usti boyliklariga ega.

Bugun mamlakatimizda bo'lgani kabi Navoiy viloyatida ham iqtisodiy islohatlar tobora chuqurlashib bormoqda, uning pirovard natijalari bo'y ko'rsata boshladi. Bu borada Navoiy viloyatida iqtisodiy islohatlar jarayoni silliq kechayapti deb aytib bo'lmaydi, Chunki bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi murakkabliklar hamma sohada o'z aksini topmoqda. Mustaqillik yillari Navoiy viloyatida iqtisodiy islohatlar borasida ijobiy natijalarga erishildi. Navoiy viloyati sanoati ayniqsa tez rivojlandi.

O'zbekiston mustaqilligi keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ana shu istiqbol sharofigi bilan navqiron Navoiy viloyati tashkil topdi. 2002 yil 31 mayda Prezidentimiz I.A.Karimov Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida bu viloyatning tashkil etilish tarixi haqida: "Navoiy viloyatini O'zbekistonimizning o'ziga xos va betakror xazinasini desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi. Bu yerdagi ko'pgina konlar o'zining noyob xususiyatlari va zahiralari nuqtai nazaridan nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyoda kamdan-kam topiladi. Muruntov, Daug'iztog', Ko'kpatas, Omontoytog' kabi oltin konlari, Qizilqumdagi fosforit koni mamlakatimizdan olis-olislarda ham yaxshi ma'lum. Bu ma'lumotlar, albatta, oddiy mutaxassislariga ham ayon, lekin vohaning iqtisodiy salohiyatiga boshqa manbalar, aytaylik, zamonaviy aerokosmik va geodeziya texnikasi orqali olingan ma'lumotlarga asoslanib baho beradigan bo'lsak, uning bag'rida yana qancha-qancha tabiiy boyliklar, noyob zahiralari yotganiga, ularning hajmi va ko'lami esa strategik jihatidan istiqbolli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Bir so'z bilan

aytganda, bu viloyat o'zining iqtisodiy salohiyatiga ko'ra ma'muriy-hududiy birlik bo'lishi uchun barcha asoslari bor edi... ” – degan fikrlarni keltirib o'tgan edi.

Darhaqiqat, geografik joylashuviga ko'ra, Navoiy viloyati O'zbekiston Respublikasining markaziy qismida joylashgan bo'lib, shimoliy va shimoli-sharqdan Qozog'iston, janubiy-sharqdan Jizzax, Samarqand, janubdan Qashqadaryo, janubiy-g'arbdan Buxoro viloyatlari bilan chegaradosh. Uning hududi 111,0 ming kv.km.ga teng, ya'ni viloyatning umumiy yer maydoni mamlakatimiz hududining 25 foizdan ortiqrog'ini egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi xaritasidan yangi viloyat bo'lib o'rin egallagan kundan boshlab navqiron Navoiyning yosh davlatimiz istiqloli sahifasidagi dadil odimlari boshlandi. Viloyatda 1960-1980 yillarda paydo bo'lgan yuqori darajadagi bunyodkorlik va ishlab chiqarish sur'ati so'ndirilmadi, aksincha istiqlol sharofati bilan jahon andozalariga mos yangi texnologiyalar shundog'am baquvvat iqtisodiy tizimga qo'shildi.

Mustaqillik e'lon qilingan dastlabki kunlardanoq davlatimiz rahbari mamlakat oltin sanoatini iqtisodiyotimizning ustuvor yo'nalishi deb belgiladi. Shu bilan birga Qizilqum sanoat mintaqasidagi vaziyatni o'nglashgina emas, uni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tubdan rivojlantirish masalasini qo'ydi. Oltin zahiralarini izlab topish va ularni qayta ishlash, tilla qo'ymalari olish tizimini isloh qilishga doir maxsus hukumat qarori qabul qilindi. Natijada oltin ishlab chiqarish sanoatidagi vaziyat barqarorlashib yuksalish sari dadil odimladi. Bu sohani zamonaviy texnika bilan ta'minlash uchun 250 million AQSh dollari sarflanib, qisqa davr ichida bu o'zini oqladi.

Istiqlol yillarida oltin ishlab chiqarish yildan-yilga bir me'yorda o'sib bormoqda. Muruntov konidan yiliga 4045 mln m³ tog' jinsi (shundan 20-25 mln m³ ruda GMZ-2) qayta ishlanadi. GMZ-1da 1993 yildan boshlab 0,7-1,0 mln m³ ruda qayta ishlanmoqda (Muruntog' va Zarmetan konlari rudalarini)¹.

1995 yili ishga tushgan Uchquduqdagi GMZ-3da Ko'kpatas va Daug'iztog' konlaridan keltirilgan (yiliga 2 mln.t.) oksidlangan ruda qayta ishlanmoqda. Shu

¹ Qarang: Z.Odinayeva. Qizilqum sahrosida bahor. T.: “Muharrir” nashriyoti, 2008 yil, 35-bet.

yildan boshlab, iqtisodiy samara bermaganligi uchun uran konlarini ochiq va yer osti usuli bilan qazib olish to'xtatilib, uning o'rniga zamonaviy, ekologik toza va iqtisodiy samarali usul – "Yer ostidan tanlab eritish" yo'li bilan (zakis - okis) uran olinmoqda. Yer ostidan tanlab eritish texnologiyasi zarur bo'lgan trubalar (quvurlar) kombinatni o'zida poliyetilen va polivinilxloriddan yasalmoqda.

Markaziy Qizilqumda joylashgan Jeroy-Sardar fosforit koni zahirasi bo'yicha juda katta (40-50 m chuqurlikda zahirasi 303,6 mln. t. ruda, 57,5 mln. t. fosfor besh oksidi) Respublika qishloq xo'jaligi talabini 100 yil davomida ta'minlashi mumkin.

"Qadimgi davrdan boshlab qazib olinayotgan va shaffoflangan go'zal toshni beradigan G'azg'on marmari dunyoda eng mashhurdir" – degan edi akademik A.V.Sidorenko. Haqiqatda esa hozirgi kunda bu yerdan keng ko'lamda yetti rangda marmar ishlab chiqarilmoqda. Umuman olganda 22 rangli va 200 ga yaqin har xil rang taratuvchi toshlar bor¹.

Navoiy – sanoat sohasidagi ulkan salohiyatga ega viloyat. Bu yerda 20 dan ziyod yirik sanoat korxonalari faoliyat yuritayotganligi shundan dalolat beradi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi kunda mana shunday korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahonning 54 davlatiga eksport qilinayotganligining o'zi ham ko'p narsani anglatadi².

O'z mahsulotlari bilan nafaqat respublikamizda, balki xorijda ham shuhrat qozongan "Navoiyazot" OAJ va Navoiy "Elektrokimyo zavodi" sanoat korxonalari ishlab chiqaradigan yuzlab turdagi mahsulotlar mamlakatimiz qishloq xo'jaligi va sanoatiga o'zlarining salmoqli ulushini qo'shib kelmoqda. Navoiyazot" OAJ 70 dan ortiq turli xil mahsulotlar ishlab chiqaradi, shu jumladan, azot o'g'itlarining yillik ishlab chiqarish hajmi 0,95 mln.tonnani tashkil etadi. Ushbu korxona ishlab chiqarishni rivojlantirish va qayta texnik jihozlash maqsadida: "Kriogenmash" OAJ, NVF "TexnoGaz GIAP", "Meta Protsess" firmasi, "Ximtexnologiya" OAJ, "Alvigo" AJ, "Mexatronika" firmasi, "Partnyor" firmasi, "Lenaxim" OAJ, "Mitsui

¹ O'sha joyda.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2008 yil, 13-dekabr.

LTD” kompaniyasiga o‘xshash 20 dan ortiq firma va kompaniyalar bilan hamkorlik olib boradi. Navoiy “Elektrokimyozavodi” sexlarida ishlab chiqarilayotgan o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, mineral o‘g‘itlar Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport qilinadi. Hozirgi kunda korxonada 21 turdagi o‘simliklarni himoya qilish vositalari, 7 turdagi xalq iste’moli mahsulotlari ishlab chiqariladi. Birgina 2007 yilda 26505514,08 so‘mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarilgan¹.

Zamonaviy texnologiya, ilm-fan yutuqlaridan samarali usullardan foydalanayotgan viloyatdagi gigant korxonalardan yana biri – Navoiy “Qizilqumsement” OAJdir. Buyuk mustaqillik korxona uchun ham mavaffaqiyat keltirdi. O‘tgan yillar davomida ishlab chiqarish jarayonlari tubdan yangilandi. Hozirda sutkasiga har biri 3 ming tonna kliner (yarim mahsulot) ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan ikkita 7,9 x6, 4x95 metr o‘lchamdagi 4 bosqichli issiqlik almashgichli aylanma pech, xuddi shunday quvvatga ega yana bitta 4,5x97,5 metr o‘lchamdagi 4 bosqichli issiqlik almashgichli dekorbinizator uskunali aylanma pechlar tinimsiz ishlab turibdi. Bundan tashqari, 2007 yilda yiliga 500 ming tonna sementni qoplarga qadoqlaydigan yana ikkita qo‘shimcha tarmoq ishga tushirildiki, korxonaning ishlab chiqarish sur‘ati yildan-yilga o‘sib, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorini egallamoqda. Yuqori sifatli sement ishlab chiqarish bo‘yicha “Qizilqumsement” OAJ 2000 yil Ispaniyada “Oltin yulduz” va 2001 yil Pekin shahrida “Oltin kubok”, 2002 yil London shahrida “Global kvaliti menejment” kompaniyasining qarori bilan sifat sovrini egasi bo‘ldi. 2005 yildan buyon korxona Xalqaro standart ISO 9001 2000 talablari asosida sifat menejmenti talablari tizimi joriy etilganligi va bu tizim hamjamiyat tomonidan tan olinganligi haqida guvoh beruvchi “Sertifikat”ga egalik qilib kelishini ham yuqoridagi fikrlarimizning dalili sifatida aytib o‘tish mumkin.

Xullas, Navoiy viloyati jahondagi ko‘plab mamlakatlarga tanilgan, bugungi kunda ham samarali faoliyat ko‘rsatib kelayotgan mana shunday qudratli va ko‘p tarmoqli zamonaviy ishlab chiqarish kompleksi yurtimizda amalga oshirilayotgan

¹ Qarang: Z.Odinayeva. Qizilqum sahrosida bahor. T.: “Muharrir” nashriyoti, 2008 yil, 35-bet.

tub o'zgarishlar, yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining yorqin namoyoni sifatida barchani hayratda qoldirmoqda.

Darhaqiqat, bugun respublikada modernizatsiya qilingan va texnologik jihatdan qayta jihozlangan zavod va fabrikalarda, yangidan bunyod etilgan zamonaviy qo'shma korxonalarda xaridorgir, raqobatbardosh, ya'ni eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilayotgani aslida investitsiyalar sharofati ekanligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda, Prezidentimizning 2008 yil 2 dekabrda e'lon qilgan "Navoiy viloyatida erkin industrial iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sababi ushbu hujjatda jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlari ko'zda tutilgan.

O'tgan yillar davomida Navoiy viloyatida jami 77,7 milliard so'mlik yengil sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilib, reja 111,1 foizga bajarildi. "Navoiypaxtasanoat" hududiy aksiyadorlik birlashmasiga qarashli korxonalar tomonidan 57,7 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Hozirgi kunda viloyat bo'yicha 128 ta yengil sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Navoiy shahridagi yiliga 7500 tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvatiga ega "Baxt tekstil" O'zbekiston-Lextenshteyn-Rossiya qo'shma korxonasi tomonidan joriy yilning o'tgan birinchi choragida 856 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, xorijga 503,7 ming AQSh dollarilik mahsulot eksport qilindi. Korxona o'tgan yillar mobaynida Rossiyaning "Presstij", "Ivanovskaya manufaktura" va ichki bozorda "Bay teks", "Tekstilimpeks", "BFT tekstil" kabi korxona va kompaniyalar bilan hamkorlik qilib kelayapti.

Zarafshon shahridagi "Velan" O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi mana bir necha yildirki, bozorda o'z o'rniga ega bo'lib kelayotir. Korxona asosan qo'y, echki va tuya junini qayta ishlab, adyol, nimcha, paypoq kabi tayyor

mahsulotlarni xorijga eksport qilib keladi. 2009 yilda korxona tomonidan 400 million soʻmlik mahsulot ishlab chiqarish va 20 ming AQSh dollari miqdorida mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan.

2009 yilda tashkil topgan “Navbahor tekstil” xorijiy korxonasi oʻz faoliyatini Turkiyaning “Adil Tekstil San & tik.A.S.” shirkatining yuz foiz investitsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Korxona yil yakunigacha 500 ming AQSh dollarlik mahsulotni chetga eksport qilishni rejalashtirgan.

Joriy yil davomida Navoiy viloyatida yana 10 ta yengil sanoat korxonasini ishga tushirish rejaga kiritilgan. Jumladan, Navoiy shahrida “Navoiy karpet” xususiy firmasi, Karmana tumanida “Karmana gilam invest”, Qiziltepa tumanida “Baxtiyor Dilmur tonggi” va boshqa korxona komlarini keltirish mumkin.

Shuningdek, “Qizilqumsement” OAJ korxonasi tomonidan Koreya Respublikasining “Daynet” kompaniyasi investitsiyalarini jalb etgan holda Xatirchi tumanida yengil sanoati tarmogʻini tashkil etish rejalashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy viloyati katta iqtisodiy potensialga, bitmas-tuganmas yer osti va yer usti boyliklariga ega viloyatdir. Butun mamlakatimizda boʻlgani singari bu viloyatda ham iqtisodiy islohotlar tobora chuqurlashib bormoqda, uning pirovard natijalari boʻy koʻrsata boshladi. Ammo bu borada Navoiy viloyatidagi iqtisodiy islohotlar jarayoni hamma jabhada ham silliq kechayapti deb aytib boʻlmaydi, chunki bozor iqtisodiyotiga oʻtish davridagi murakkabliklar baʼzi bir sohalarda oʻz aksini topgan. Shunday boʻlsada, sanoat sohasidagi modernizatsiyalash jarayonlari bu kabi sohalarni asta-sekin qamrab olib, tub oʻzgarishlarga olib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahrirda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgani), T., "O'zbekiston", 2008 yil.
2. "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son.
3. "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1990 y., 31-33-son.
4. "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1992 y., 1-son.
5. "Navoiy viloyatida erkin industrial iqtisodiy zona tashkil qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Xalq so'zi gazetasi, 2008 yil 4-dekabr.
6. "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2012 y., 3-son.
7. "2011-2013 yillarda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni yanada chuqurlashtirish dasturi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2011 y., 4-5-son.
8. "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2011 y., 6-7-son.

9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi // Xalq so‘zi gazetasi, 2010 yil 13 noyabr soni.
10. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil.
11. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: “O‘zbekiston”, 2009 yil.
12. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari. T.: “O‘zbekiston”, 2009 yil.
13. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: “O‘zbekiston”, 1-jild, 1996 yil.
14. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.: “O‘zbekiston”, 2-jild, 1996 yil.
15. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: “O‘zbekiston”, 3-jild, 1996 yil.
16. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. T.: “O‘zbekiston”, 4-jild, 1996 yil.
17. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.: “O‘zbekiston”, 5-jild, 1997 yil.
18. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.: “O‘zbekiston”, 6-jild, 1997 yil.
19. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.: “O‘zbekiston”, 7-jild, 1999 yil.
20. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: “O‘zbekiston”, 8-jild, 2000 yil.
21. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.: “O‘zbekiston”, 9-jild, 2001 yil.
22. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.: “O‘zbekiston”, 10-jild, 2002 yil.
23. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.: “O‘zbekiston”, 11-jild, 2003 yil.

- 24.Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.: "O'zbekiston", 12-jild, 2004 yil.
- 25.Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.: "O'zbekiston", 13-jild, 2005 yil.
- 26.Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.: "O'zbekiston", 14-jild, 2006 yil.
- 27.Karimov I.A. Jamiyatni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.: "O'zbekiston", 15-jild, 2007 yil.
- 28.Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'li. T.: "O'zbekiston", 16-jild, 2008 yil.
- 29.Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida: O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi; T.: "O'zbekiston", 1993 yil.
- 30.Axmedov A, Sayidaminov Z. O'zbekiston Respublikasi. -T.: "O'zbekiston", 2006.-B. 448.
- 31.Odinayeva Z. Qizilqum sahrosida bahor. T.: "Muharrir" nashriyoti, 2008 yil.-B. 221.
- 32.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2008 yil, 13-dekabr.
- 33.Prezidentimiz I.A.Karimovning 2002 yil 31 mayda Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2002 yil, 1 iyun.
- 34.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 704-b
- 35.Alimova D. Mustaqillik O'zbekiston tarixining dastlabki qadamlari. – T., 2000. – 233 b.
- 36.Qodirov B., Rulinov J. Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot. – T., 1998. – 235 b.

- 37.O'zbekiston yangi tarixi. Uchinchi kitob. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
- 38.Alimov U.S. Kichik va o'rta biznesni investitsiyalashtirishni takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) T.: 2001 y. (diss. i.f.n.)
- 39.Yodgorova G.D. Tarkibiy o'zgarishlar sharoitida Buxoro va Navoiy viloyatlarida sanoat ishlab chiqarishini oshirish imkoniyatlari. T.: 1993 y. (diss. i.f.n.)
- 40.O'roqova N.S. O'zbekistonda mustaqillik davrida sanoat sohasidagi islohotlar va o'zgarishlar jarayoni (Janubiy viloyatlar misolida). T.: 2004 y. (diss. avtoref)
- 41.Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat korxonalari faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirish (Buxoro viloyati misolida). T.: 2006 y. (diss. i.f.n.)
- 42.Qarshiyev R.M. Navoiy shahrining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti: tajribalar va muammolar (1958-1990 yillar). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Andijon, 1996. – 24 b.
- 43.Kucherskiy N. I., Flagman industrii nezavisimogo Uzbekistana, T., 1997. S. 276.
- 44.Kucherskiy N. I. i dr., Navoiyskiy gorno-metallurgicheskiy kombinat: istoriya sozdaniya i razvitiya, T., 2002. S.184.
- 45.Sattorov U. Navoiy viloyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.- 283 b.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
Qarori
2009-2010 YILLARDA NAVOIY VILOYATINI KOMPLEKS
IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH DASTURI TO‘G‘RISIDA
(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 7-son, 70-
modda; 2010 y., 23-son, 182-modda)

Iqtisodiyotning hududiy tuzilmasini yanada takomillashtirish, mavjud tabiiy resurslardan va iqtisodiy salohiyatdan oqilona foydalanish, zamonaviy bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish, aholining bandligini, turmush darajasini barqaror va izchil oshirishni ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. 2009-2010 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi (keyingi o‘rinlarda Dastur deb ataladi) 1-ilovaga muvofiq ma’qullansin, Dastur quyidagi asosiy yo‘nalishlarni va maqsadli parametrlarni nazarda tutadi:

- mavjud tabiiy resurslarni kompleks va samarali o‘zlashtirish, har bir tumanning iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish, shuningdek xorijiy investitsiyalar hajmlarini ko‘paytirish hisobiga yalpi mintaqaviy mahsulotning 2009 yilda 7,7 foizga, 2010 yilda 8 foizga o‘shirishni ta’minlaydigan mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror yuqori sur’atlarda o‘stirish;

- zamonaviy qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta jihozlashni davom ettirish, birinchi navbatda, aholining bandlik darajasi past va dotatsiyada bo‘lgan tumanlarda raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirish hisobiga yalpi mintaqaviy mahsulot hajmida sanoat korxonalari ulushini 2,2 baravarga yetkazish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, ayniqsa qishloq joylarda jadal rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kichik biznesning yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushini 29,8 foizgacha yetkazish hamda shu asosda doimiy ish o'rinlari va barqaror daromad manbalari yaratish hisobiga aholi bandligi muammolarini hal etish;

- xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida, ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, uning yalpi mintaqaviy mahsulot tarkibidagi ulushini 30,9 foizgacha yetkazish;

- qishloq infratuzilmasini yanada rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish, ichimlik suv va tabiiy gaz ta'minotini yaxshilash.

2. 2009-2010 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini amalga oshirish tadbirlari 2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

* 2-ilova rus tilidagi matnda berilgan.

3. Dasturning maqsadli parametrlari so'zsiz bajarilishini ta'minlash maqsadida 2009-2010 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha 3-ilovaga muvofiq tarkibda Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etilsin.

Quyidagilar Muvofiqlashtiruvchi kengashning asosiy vazifalari etib belgilansin:

- Dasturning maqsadli parametrlariga erishish yuzasidan monitoring natijalarini ko'rib chiqish va shu maqsadda vazirliklar va idoralar, xo'jalik birlashmalari, shuningdek Navoiy viloyati hokimligi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- vazirliklar va idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlarining, shuningdek Navoiy viloyati hokimligining paydo bo'ladigan muammolarni hal etish uchun chora-tadbirlar ko'rgan holda hisobotlarini eshitib borish;

- Dasturda nazarda tutilgan tadbirlar va loyihalarni, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hisobiga amalga oshirish uchun moliyalashtirishning aniq manbalarini belgilashga ko'maklashish;

- mavjud resurslardan va moliyaviy manbalardan, shu jumladan xalqaro grantlar va kreditlardan oqilona foydalanishni hisobga olgan holda Dasturning maqsadli parametrlariga tuzatishlar kiritish va ularni aniqlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

4. Quyidagilarga:

- Navoiy viloyati hokimiga, shaharlar va tumanlar hokimlariga – tasdiqlangan Dasturning prognoz parametrlari to'liq va sifatli bajarilishi yuzasidan;

- vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari rahbarlariga – tegishli tadbirlarning va Dasturga kiritilgan tarmoq loyihalarining o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan shaxsan javobgarlik yuklansin.

5. Navoiy viloyati hokimi (E. Turdimov) har bir tuman va shahar bo'yicha Dasturning bajarilishini har chorakda tanqidiy ko'rib chiqsin, maqsadli dasturlarga erishish uchun zarur chora-tadbirlar ko'rsin, bunda yangi ish o'rinlari tashkil etishga va ijtimoiy loyihalarining amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi:

Dasturning bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring o'rnatsin, hududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning erishilgan darajasi tanqidiy tahlil qilinishini ta'minlasin, mintaqa iqtisodiyotidagi eng dolzarb va muhim muammolarni hal etish bo'yicha aniq takliflar kiritsin;

monitoring natijalari bo'yicha har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunigacha Vazirlar Mahkamasiga umumlashtirilgan materiallar kiritsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi Savdo-sanoat palatasi hamda Navoiy viloyati hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda Dasturda nazarda tutilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga faol jalb etish maqsadida xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar bilan hamkorlik qilish bo'yicha tadbirlar kompleksini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi har yili Investitsiya dasturini shakllantirishda

unga Dasturda nazarda tutilgan eng muhim investitsiya loyihalari kiritilishini nazarda tutsinlar.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari R.S. Azimov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining
Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV
Toshkent sh., 2009 yil
11 fevral, 37-son**

Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 11 fevraldagi 37-son qaroriga

1-ILOVA

2009-2010 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

DASTURI

Kirish

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotda tarkibiy qayta o'zgartirishlarga, respublikaning barcha tarmoqlari va hududlarini mutanosib rivojlantirishni ta'minlashga yo'naltirilgan izchil va qat'iy islohotlar amalga oshirilmoqda. Rivojlantirishning ishlab chiqilgan maqsadli dasturlari hududlar bilan puxta bog'langan holda amalga oshirilmoqda, yirik mintaqaviy investitsiya va ijtimoiy loyihalar aholining bandligini va turmush darajasini barqaror o'stirishni ta'minlamoqda.

Navoiy viloyatida ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda sezilarli natijalarga erishildi. Amalga oshirilayotgan tarkibiy qayta o'zgartirishlar va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish doirasida viloyat tumanlari, shaharlari va qishloq aholi punktlarini iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Aholining eng nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga, bandlikni ta'minlashga, kichik biznesni rivojlantirishga, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga, qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirishga, aholini ichimlik suv va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilashga, ishlab chiqarish infratuzilmasini isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Strategik jihatdan muhim bo'lgan mineral-xom ashyo resurslarini qazib chiqarish va qayta ishlash bo'yicha quvvatlarni yaratishga, shuningdek shimoliy hududlarning tabiiy-iqtisodiy salohiyotidan oqilona foydalanishga yirik investitsiyalar yo'naltirildi.

Moddiy-texnik va moliyaviy bazani, mahalliy hokimiyat organlarining hududlarni rivojlantirish yuzasidan vakolatlari va mas'uliyatini kengaytirishga yo'naltirilgan institutsional qayta o'zgartirishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, aholining tobora o'sib borayotgan talabi va ehtiyojini hisobga olib, keyingi yillarda viloyatda bir qator hal qilinmagan muammolarning ko'payib borayotganligi kuzatilmoqda. Viloyatda har bir hududni uning jug'rofiy joylashishidan, iqlim sharoitlaridan, mehnat va moliyaviy resurslar mavjudligidan, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda kompleks rivojlantirish imkoniyatlari har doim ham hisobga olinmayapti.

Viloyat ko'lamida mahalliy korxonalarda, ayniqsa yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish sohasida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish ishlarining samaradorligi mutlaqo yetarli emas.

Mahalliy korxonalarda yuqori likvidli va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarishlarini, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishning puxta tizimi mavjud emas.

Viloyatda aholi bandligini ta'minlash, kichik biznesni rivojlantirish, xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini kengaytirish masalalariga yetarli e'tibor qaratilmayapti. Bu ayniqsa qishloqda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga, chunonchi, tibbiy va maishiy xizmatni ko'rsatishni, aholining ichimlik suv va tabiiy gaz ta'minotini yaxshilashga taalluqlidir.

Viloyatni kompleks va mutanosib rivojlantirish davlat va xo'jalik boshqaruvi hududiy organlarining barcha darajalarida kadrlar malakasini hamda boshqaruv xodimlarining kasb mahoratini jiddiy oshirishni talab qiladi.

2009-2010 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini (keyingi o'rinlarda Dastur deb ataladi) ishlab chiqish metodologiyasi quyidagi omillardan foydalanishga asoslangan:

viloyatni ikki yil mobaynida kompleks rivojlantirish uchun – o'rta muddatli istiqbolda viloyatni kompleks rivojlantirish uchun omillar, sharoitlar va zaminlarni tahlil qilish, ularning ta'sirini baholash, mavjud tamoyillar va muammolarni aniqlash;

ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishning zamonaviy metodlarini qo'llagan holda ishlab chiqilgan maqsadli ko'rsatkichlar tizimi;

maqsadli ko'rsatkichlarni rivojlantirishning amaldagi va ishlab chiqilayotgan eng muhim maqsadli dasturlari bilan bog'lash;

moliyalashtirishning aniq manbalarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadli mo'ljallarga erishish bo'yicha aniq tadbirlarni ishlab chiqish.

1. Hududiy rivojlantirish strategiyasining maqsadli mo'ljallari va asosiy yo'nalishlari

Hududiy rivojlantirishning maqsadli mo'ljallari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan, shuningdek rivojlantirishning maqsadli dasturlaridan kelib chiqqan holda belgilangan.

Dasturda yalpi mintaqaviy mahsulotni 2009 yilda 7,7 foizga, 2010 yilda 8,0 foizga, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi mintaqaviy mahsulot tarkibidagi ulushini barqaror ko'paytirish hisobiga o'stirish nazarda tutilmoqda (1, 2, 3-jadvallar*).

* 1, 2, 3-jadvallar rus tilidagi matnda berilgan.

Sanoat ishlab chiqarishini hududiy jihatdan tashkil etishni quyidagilar asosida tubdan takomillashtirish nazarda tutilmoqda:

sanoatning strategik jihatdan muhim tarmoqlarini – neft-gaz kompleksini va noruda materiallar sanoatini yangi konlarni o'zlashtirish va mineral-xom ashyo bazasi zaxiralarini ko'paytirish, mineral-xom ashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlashning zamonaviy, energiyani tejaydigan, yuqori samarali texnologiyalarini joriy etish hisobiga barqaror rivojlantirishni ta'minlash;

tumanlarning raqobatbardoshli afzalliklari negizida eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni kengaytirish;

qurilish materiallari sanoatida sifat jihatidan jahon standartlariga javob beradigan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish;

mahalliy qishloq xo'jaligi xom ashyosidan foydalanish negizida, birinchi navbatda, to'qimachilik sanoatida qayta ishlovchi ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish, mamlakatimiz korxonalarida paxta tolasini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish;

mintaqada mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va raqobatbardoshli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarni, yirik korxonalar filiallarini keng rivojlantirish va joylashtirish.

Sanoat korxonalarini rivojlantirish viloyatning barcha shahar va tumanlarida ustuvor yo'nalish bo'ladi. 2009-2010 yillar mobaynida sanoat mahsulotlarining o'rtacha yiliga 5,4 foiz o'sishi kutilmoqda, bu uning yalpi mintaqaviy mahsulotdagi ulushini 48 foizgacha yetkazishni ta'minlaydi. Shuningdek umumiy hudud sanoat mahsuloti hajmida mahalliy tasarrufdagi korxonalar ulushi 2,2 barobarga oshiriladi.

Tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlarni oqilona muvofiqlashtirish hamda aniq investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida sanoat korxonalarini joylashtirish bilan bog'liq tarkibiy siljishlarga erishiladi (4-jadval*).

* 4-jadval rus tilidagi matnda berilgan.

Ikki yil mobaynida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan yangi sanoat korxonalari va qo'shimcha sexlarni ishga tushirish, shuningdek mavjud korxonalarni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha kamida 150 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 35 – 40 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishiladi.

Rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, energetika, qurilish materiallari, oziq-ovqat, yengil sanoat kabi tarmoqlarda modernizatsiyalash va texnika bilan qayta jihozlash dasturlarini amalga oshirish davom ettiriladi.

Bunda bo'sh turgan ob'ektlarda kichik biznesning istiqbolli loyihalarini samarali joylashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Shu bilan birga, Dastur doirasida Konimex, Nurota, Uchquduq, Tomdi tumanlarida va Zarafshon shahrida mineral-xom ashyo resurslarini kompleks o'zlashtirishni hamda shu asosda yirik va kichik qayta ishlab chiqarish korxonalarini, shu jumladan polimetallar, sement xom ashyosi, noruda

materiallarning har xil turlarini ishlab chiqaradigan korxonalarni rivojlantirish nazarda tutilgan.

Sanoatni rivojlantirish ko'p jihatdan xo'jalik yuritishning innovatsiya shakllarini izchil joriy etish, yangi texnologiyalarni jadal o'zlashtirish va yuqori darajada qo'shimcha qiymatli raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Jumladan, yengil sanoatda ipak va trikotaj buyumlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish va kengaytirish, shuningdek to'qimachilik sanoati uchun ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, tikuv tarmog'ini rivojlantirish hisobiga qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'sishiga ko'maklashadigan ilg'or texnologiyalarni joriy etish mo'ljallanmoqda.

Ushbu yo'nalishda kichik biznes sub'ektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish hisobiga ustuvorlik Navoiy shahriga, Nurota va Navbahor tumanlariga beriladi.

Dastur iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning butun sektorini, shu jumladan yaratilgan rag'batlardan samarali foydalanish vositasida jadal rivojlantirishni nazarda tutadi. Ko'rsatib o'tilgan chora-tadbirlar xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'rtacha 5,2 foizga o'sishini ta'minlash imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va joylashtirish. Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi quyidagi maqsadli yo'nalishlar hamda tarkibiy qayta o'zgartirishlar, shuningdek iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bilan bog'liq qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga ta'minlanadi:

agrar sektorning ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanish, barcha tumanlarda amaldagi ekinlar tarkibini takomillashtirish (5, 5a, 5b-jadvallar*);

* 5, 5a, 5b-jadvallar rus tilidagi matnda berilgan.

fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi texnikasini yangilash, bunda lizing xizmatlaridan keng foydalanish (6, 6a-jadvallar*);

* 6, 6a-jadvallar rus tilidagi matnda berilgan.

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ishlarini Sug'orish tizimlarini rekonstruksiya qilish dasturiga muvofiq amalga oshirish (7-jadval*);

* 7-jadval rus tilidagi matnda berilgan.

meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun real asos yaratish maqsadida tarkibiy siljishlarni oziq-ovqat kompleksi yo'nalishida rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash hajmini asosan Navbahor, Konimex, Tomdi, Xatirchi tumanlarida ko'paytirish;

meva-sabzavot mahsulotlari, mevalar va uzum yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarini, bozor va ishlab chiqarish infratuzilmasi ob'ektlarini rivojlantirish, shuningdek meva-sabzavot mahsulotlari, uzumni qayta ishlaydigan zamonaviy mini-texnologiyalar bilan jihozlangan agrosanoat firmalari faoliyatini takomillashtirish va rag'batlantirish.

2009-2010 yillarda uzumzorlar maydonini 2007 yildagiga nisbatan 200 gektarga ko'paytirish va 2010 yilga borib ularni 6,7 ming gektarga yetkazish. Karmana, Konimex, Qiziltepa, Navbahor, Nurota tumanlarida meva va uzum yetishtirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi.

Xususiy dehqon xo'jaliklarida qoramollar bosh sonini ko'paytirishni rag'batlantirish, shuningdek tegishli infratuzilmalarni rivojlantirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar qoramollar bosh sonini 2010 yilda 110,4 foizga ko'paytirishga va qoramollarning umumiy sonini 315,8 ming boshga, qo'y va echkilar bosh sonini 107,4 foizga ko'paytirish va ularning umumiy soni esa 1825,2 ming boshga yetkazilishini ta'minlaydi.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hajmining ko'payishi nasldor chorvachilikni rivojlantirishning zamonaviy usullari va texnologiyalarini qo'llash, chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash, yaylovlarga suv chiqarish va chorva mollari zotini yaxshilash ishlari hisobiga amalga oshiriladi.

Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari tasdiqlangan davlat dasturlarining investitsiya loyihalari bilan o'zaro bog'liqlikda ustuvor ravishda ijtimoiy sektorga yo'naltiriladi (8-jadval*).

* 8-jadval rus tilidagi matnda berilgan.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi. Tumanlar va shaharlarni rivojlantirish butun hududni o'zaro bog'lovchi, mintaqalarga va ular aholisiga mavjud

salohiyatlardan samarali foydalanish imkonini beradigan infratuzilma bilan ta'minlanganlik asosida amalga oshiriladi. Iqtisodiyot va aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yagona transport tarmog'ini, aloqa va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga doir amalga oshirilayotgan maqsadli dasturlar bunga ko'p jihatdan ko'maklashadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasini faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va yangidan tashkil etilayotgan korxonalarning transport kommunikatsiyalariga (avtomobil va temir yo'l liniyalari), elektr energiyasiga (elektr uzatish liniyalari, kichik stansiyalar va boshqalar), gaz va texnik suv ta'minotiga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib, yangi konlarni o'zlashtirish va sanoat korxonalari qurish bo'yicha yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan o'zaro bog'liqlikda rivojlantirish nazarda tutiladi.

Ushbu yo'nalishda Zarafshon shahri, Xatirchi, Nurota, Uchquduq, Tomdi, Karmana tumanlarida ishlar olib boriladi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini mukammal ta'mirlash va rekonstruksiya qilishga 2009 yilda 18,1 mlrd so'm, 2010 yilda 28,8 mlrd so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilmoqda, bu viloyatning tranzit salohiyati mustahkamlanishi va rivojlanishini ta'minlaydi (9-jadval*).

* 9-jadval rus tilidagi matnda berilgan.

Shu bilan birga, faoliyat ko'rsatayotgan, modernizatsiya qilinayotgan va yangidan tashkil etilayotgan sanoat korxonalarining avtomobil va temir yo'llarga ulanishini ta'minlashga doir bir qator chora-tadbirlar nazarda tutilgan, bu avtomobil va temir yo'l orqali yuk tashishni yengillashtiradi.

Bundan tashqari, Karmana tumanida «Erkin iqtisodiy zona» va xalqaro logistika markazi tashkil etilishi munosabati bilan viloyatda yangi ishlab chiqarish quvvatlari barpo etish, shuningdek mamlakat ishlab chiqaruvchilarining dunyoning boshqa mamlakatlari va mintaqalari bilan bog'laydigan asosiy havo, temir yo'l va avtomobil transportlari magistralari joylashgan hududiy ishlab chiqaruvchilari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish va transport chiqimlarini qisqartirish nazarda tutilmoqda.

Telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha Hukumat qarorlarining amalga oshirilishi hududda, ayniqsa qishloq tumanlarida ishlab chiqarish korxonalari va aholining ushbu xizmat turlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshiradi.

Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish. 2006 – 2010 yillarga mo'ljallangan dasturning tasdiqlangan parametrlari xizmatlar ko'rsatish sohasi va ijtimoiy infratuzilmaning tegishli maqsadli yo'nalishlari uchun asos hisoblanadi.

Viloyatda xizmatlar ko'rsatish va servis sohasida, ayniqsa qishloq joylarda tadbirkorlik tashabbuslarini yanada kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, uning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushini yiliga 2,4 foizdan oshirib borish nazarda tutilmoqda. Natijada xizmat sohasida band aholining ulushi qariyb 1,5 baravar oshishi mo'ljallanmoqda.

Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishga yangi ob'ektlarni ishga tushirish, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash va hajmini kengaytirish hisobiga erishiladi (10, 10a-jadvallar*).

* 10, 10a-jadvallar rus tilidagi matnda berilgan.

Karmana, Qiziltepa, Xatirchi va Uchquduq tumanlarida xizmatlar sohasini rivojlantirishning yanada yuqori sur'atlariga erishish kutilmoqda.

Shahar va tumanlarda, ayniqsa qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash natijasida kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini 29,8 foizgacha yetkazish mo'ljallanmoqda.

Aholini ichimlik suv bilan ta'minlashni yaxshilash uchun ichki investitsiyalar bilan birga 12,5 mln AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiya mablag'lari jalb qilish mo'ljallangan. Ushbu loyihani amalga oshirish 101,3 ming kishini toza ichimlik suv bilan ta'minlash, suv quvurlarini yangilash, suv o'lchash priborlarini o'rnatish imkonini beradi.

90 ta qishloq aholi punktiga 470 kilometr uzunlikdagi suv quvurlari o'tkazish ko'zda tutilmoqda. 2011 yilga borib aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash darajasi 78,4 foizga yetkaziladi.

Bundan tashqari, aholini tabiiy gaz bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida yaqin ikki yilda har xil diametrli 29,3 km gaz quvurlari ta'mirlanadi, 20 km rekonstruksiya qilinadi va 28 km yangidan o'tkaziladi. Natijada 2010 yil yakuniga borib yana 10 ming xonadonning gaz ta'minoti yaxshilanib, aholining tabiiy gaz bilan ta'minlanish darajasi 85,5 foizni tashkil qiladi.

Mahsulot eksportini kengaytirish. Eksport hajmining kimyo va qayta ishlash, to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, meva-sabzavot va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish hisobiga o'sishi mo'ljallanmoqda.

Aholining ish bilan bandlik darajasi. Aholining ish bilan bandlik ko'rsatkichlari hududni kompleks va balansli rivojlantirishning pirovard maqsadli yo'nalishlari hisoblanadi (11, 11a, 11b, 11v-jadvallar*).

* 11, 11a, 11b, 11v-jadvallar rus tilidagi matnda berilgan.

Aholi bandligi muammolarini hal etish hududda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mavjud quvvatlarni kengaytirish va rekonstruksiya qilish, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish va har tomonlama rag'batlantirish;

yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyalash orqali kasanachilikni rivojlantirish;

ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida yangi ob'ektlarni foydalanishga topshirish.

Mintaqalarning moliyaviy barqarorligi. Dotatsiyada bo'lgan tumanlarning mahalliy byudjetdagi dotatsiya ulushini kamaytirish hamda qolgan tuman va shaharlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash hududiy rivojlantirish strategiyasining muhim yo'nalishidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tavsiya etilayotgan yo'nalishlari 2009-2010 yillarda

dotatsiya oladigan tumanlar sonini 5 tadan 2 tagacha qisqartirish imkonini beradi (12-jadval*).

* 12-jadval rus tilidagi matnda.

2. Moliyalashtirish va resurslar bilan ta'minlash

Dasturni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy manbalar hisobiga moliyaviy resurslar nazarda tutilmoqda:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan, shuningdek mineral-xom ashyo resurslarini kompleks qazib oladigan va qayta ishlaydigan korxonalar tashkil qilishga jalb etish mo'ljallanmoqda;

xususiychki investitsiyalar (mamlakatimiz investorlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'lari), ularning shuningdek ishlab turgan korxonalarni modernizatsiyalash va texnika bilan qayta jihozlashga, xizmatlar ko'rsatish va servis sohasining yangi ob'ektlarini tashkil etishga yo'naltiriladigan mablag'lari;

qarz olingan xorijiy investitsiyalar va Hukumat kafolatisiz jalb etiladigan kreditlar;

asosan ijtimoiy sektorga va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltiriladigan davlat byudjetidan va byudjetdan tashqari fondlardan investitsiyalar.

Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 11 fevraldagi 37-son qaroriga

3-ILOVA

2009-2010 yillarda Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash

TARKIBI

Shaismatov E.R. – Bosh vazir o'rinbosari, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi

Turdimov E.O. – Navoiy viloyati hokimi, kengash raisining o'rinbosari

G'aniyev E.M. – Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri, kengash raisining o'rinbosari

Sanaqulov Q.S. – Navoiy kon-metallurgiya kombinati bosh direktori

Xaitov A.A. – Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri vazifasini bajaruvchi

Shoabdurahmanov R.M. – Iqtisodiyot vazirining o'rinbosari

Tursunov Yo.E. – Moliya vazirining o'rinbosari

Rofiyev Q.T. – Markaziy bank raisining birinchi o'rinbosari

Shayxov A.E. – Savdosanoat palatasi raisi

Xamrayev Sh.R. – Qishloq va suv xo'jaligi vazirining o'rinbosari

Maksumov N.E. – «Davarxitektqurilish» qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari

Musayev D.O. – Davlat mulki qo'mitasi raisi

Ulashov B.S. – Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining raisi vazifasini bajaruvchi

Xolmuxamedov O'.O. – «O'zkommunxizmat» agentligining bosh direktori

Akramov E.M. – «O'zqurilishmateriallari» kompaniyasining raisi

Vagapov I.X. – «O'ztransgaz» kompaniyasining raisi

Teshaboyev B.M. – «O‘zbekznergo» kompaniyasining raisi

Uzoqov U.Y. – Vazirlar Mahkamasining Qishloq va suv xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste’mol tovarlari masalalari axborot-tahlil departamenti mudiri

Yusupov E.A. – Vazirlar Mahkamasining Iqtisodiyot va tashqi iqtisodiy aloqalar masalalari yig‘ma axborot-tahlil departamenti yetakchi mutaxassisi, Muvofiqlashtiruvchi kengash kotibi

* Viloyatdagi barcha shahar va tumanlar hokimlari Muvofiqlashtiruvchi kengash a’zolari hisoblanadi.

Mavzu: Mustaqil O‘zbekistonda sanoat sohasida islohotlar, o‘zgarishlar, natijalari va istiqboli (Navoiy viloyati misolida).

Kirish..... 3-bet.

I-bob. Mustaqillik – O‘zbekiston sanoati taraqqiyotining muhim omili.

1.1. Mustaqillik sharoitida O‘zbekiston sanoatida olib borilayotgan islohotlar – taraqqiyot garovi 10-bet

1.2. Navoiy viloyati – mamlakatimizda yuqori sanoat potensialiga ega bo‘lgan viloyat 17-bet

II-bob. Navoiy viloyati sanoatiga chet el investitsiyalarining kiritilishi.

2.1. Navoiy viloyati sanoatiga chet el investitsiyalari-ning kiritilishi..... 30-bet

2.2. Navoiy viloyati sanoat korxonalari qurilishida chet ellik hamkorlar bilan amalga oshirilgan ishlar..... 36-bet

III-bob. Keyingi yillarda Navoiy viloyati sanoatini modernizatsiyalash jarayonlari va natijalari.

3.1. Navoiy viloyati sanoat mahsulotlari va halq iste’moli mollari ishlab chiqarishining yilma-yil ko‘payib borishi..... 41-bet

3.2. Navoiy viloyati sanoat mahsulot sifatining oshib mamlakatdan tashqariga chiqarilishi 45-bet

Xulosa..... 51-bet

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati..... 58-bet

Ilovalar..... 62-bet